**OôZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA OôRTA MAXSUS TAôLIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ñTURIZM VA IQTISODIYOTò FAKULTETI**

**Qurbonov Feruzbek Pirnazarovich**

**5230100- ñ Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)ò taôlim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

# IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YOôLLARI

**Ilmiy rahbar:** **Matkuliyeva Sanobar**

**Urganch 2016 yil**

**MUNDARIJA**

**KIRISH** ........................................................................................................................3

**1 BOB MOLIYAVIY MENEJMENTNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI**

1.1.Moliyaviy mȩnȩjmȩntning nazariy va kontsȩptual asoslari é é é é 8

1.2.Moliyaviy menejmentning turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar faoliyatidagi xususiyatlarié é é é é é é é é é é é é é é é é é é ..19

1.3.Moliyaviy menejmentda subyektlar faoliyatini boshqarishni axborotlar bilan taổminlash va moliyaviy hisobotlardan foydalanishé é é é é é 28

**2 BOB IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MOLIYAVIY MENEJMENTNI AMALDA QOLLASH HOLATI TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOổNALISHLARI**

2.1 Korxona aktivlarining mohiyati, ularni boshqarish tamoyillari asosida tahlili(ñUrganch yogổ-moyò AJ misolida)é é é é é é é é é é é ..39

2.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda pul mablaglari xolati tahlili.......................................................................51

2.3. Korxonalarda moliyaviy barqarorlikni taổminlash yoổnalishlarié 61

Xulosa va takliflaré é é é é é é é é é é é é é é é é é é ..72

Foydalanilgan adabiyotlaré é é é é é é é é é é é é é é é é ..75

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarni davlat tomonidan qoʻllab quvvatlash, ularga keng sharoitlar yaratish va imtiyozlar berish ustuvor vazifalardan biri sifatida qarab kelinmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov taʼkidlaganlaridek, “jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligiga qaramay, 2015 yilda iqtisodiy dasturning eng muhim yoʻnalishlari va ustuvor vazifalari hamda chuqur tarkibiy oʻzgartirishlar, xususiy mulk va kichik biznes manfaatlarini ishonchli himoya qilishni taʼminlash boʻyicha har tomonlama puxta dasturning izchil va tizimli amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot oʻsishining barqaror va yuqori surʼatlariga hamda makroiqtisodiy muvozanatga erishilganligi qayd etildi.

Nufuzli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar va ilmiy markazlar tomonidan yuqori baholanayotgan yutuqlar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari butun jahonda “oʻzbek modeli” sifatida eʼtirof etilib, bu tanlangan rivojlanish strategiyasining yuqori samaradorligi va muvaffaqiyatini yana bir bor tasdiqlagani alohida qayd etildi. Nufuzli Jahon iqtisodiy forumi reytingiga muvofiq Oʻzbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy oʻsish prognozlari boʻyicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgan. 2015 yil yakunlari boʻyicha mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foizga, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi. Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldo taʼminlandi. Inflyasiya darajasi prognoz koʻrsatkichlaridan oshmadi.[1]ò.

Bugungi kunda mamlakat moliya tizimining asosiy boʻgʻini sanalgan xoʻjalik subyektlari moliyasini rivojlantirish, ularni iqtisodiy barqarorlikni

---

[1] I.A.Karimov 2015 yilda mamlakatimizni ijtomoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisdagi maʼruzasi. // Xalq soʻzi. 2016 yil 16 yanvar(13).

taôminlashdagi ahamiyatini oshirish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda korxonalar faoliyatini rivojlantirish sohasida olib borilayotgan islohotlar, mulkchilik munosabatlarini takomillashib borishi natijasida iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy koôrsatkichlarini oôsish tendentsiyalarini koôrishimiz mumkin. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar xususida yurtboshimiz quyidagilarni alohida taôkidlab oôtdilar. ñAmalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 56,7 foizga etdi yoki 2000-yil bilan taqqoslaganda 1,8 baravar oósdi. Tarkibiy oózgartirishlar, tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash boóyicha chora-tadbirlar va investitsiya loyihalarining faol amalga oshirilishi, shuningdek, zamonaviy infratuzilmaning shakllantirilishi 15,8 milliard AQSH dollari miqdorida yoki 2014-yildagiga qaraganda 9,5 foiz koóp investitsiyalar oózlashtirilishini taôminladi. Bunda barcha investitsiyalarning 3,3 milliard dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortigóini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 73 foizi toógóridan-toógóri chet el investitsiyalaridir. Yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yoónaltirilgan tarmoqlar jadal rivojlanishga ega boóldi. 158 ta yirik ishlab chiqarish obôekti foydalanishga topshirildi. Agrar sektorda chuqur tarkibiy oózgartirishlar yuz bermoqda. Moól hosil ï 7 million 500 ming tonnadan ziyod góalla va 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetishtirildi va yigóib olindi[2]ò.

Albatta, bunday iqtisodiy rivojlanishning negizida Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning nechogôlik samarali tashkil etilganligini aytib oôtish mumkin. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xoôjalik yuritish mexanizmida moliyaviy mablagôlar roli, boshqarish usullari tubdan oôzgargan holda, moliyaviy rejalar bevosita korxonalar tomonidan ishlab chiqilib bashorat qilish xarakteriga ega boôlib qoldi. Yurtimizda bozor munosabatlarini rivojlanishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotning muhim boôgôinlaridan biri sanalgan, kompaniyalarning faoliyat turi, maqsadlari, boshqarishning yangi vazifalari va

---

[2] I.A.Karimov 2015 yilda mamlakatimizni ijtomoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016yilga moôljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoônalishlariga bagôishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisdagi maôruzasi. // Xalq soôzi. 2016 yil 16 yanvar(13).
.

funktsiyalari vujudga keldi. Marketing, audit, moliyaviy menejment, innovatsion menejment, boshqarishning foyda olish va mablagʻlardan oqilona foydalanishga qaratilgan anʼanaviy funktsiyalari (texnik-texnologik taʼminot, rejalashtirish) roli oʻsdi. Korxonalarning mustaqilligi va xoʻjalik faoliyati natijalariga iqtisodiy javobgarlik sharoitlarida moliyaviy menejment markaziy boshqaruv funktsiyasini bajaradi va boshqa barcha vazifa hamda funktsiyalarni muvofiqlashtiradi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda rejalashtirish va bashorat qilishga katta ahamiyat beriladi hamda kompaniyalarda moliyaviy menejmentni toʻgʻri yoʻlga qoʻyilishi, xoʻjalik yurituvchi subʼektlarni samarali faoliyat yuritishining muhim omili boʻlib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxona, firma va kompaniyalarning iqtisodiy mustaqil hamda moliyaviy barqaror faoliyat koʻrsatishlarida ularni oqilona boshqarish, hisob-kitob yuritilishini bozor iqtisodiyoti talablariga moslash, moliyaviy menejment ishlarini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat boyliklaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatishni tashkil etish, natijada yuqori foyda olib, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarini oʻz vaqtida bajarish va korxona ixtiyorida turli jamgʻarmalar tashkil etish eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** Korxonalarda moliyaviy menejmentning nazariy va konseptual asoslari, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda menejment xususiyatlari, moliyaviy hisobotlarda moliyaviy menejmentda foydalanish, korxonalarning aktivlarini boshqarish kabi masalalar va korxonalar moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish bo`yicha xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlaridan Makkonell K., Milovidov V., Pavlova L., Petrosyan N., Saviskaya D., Xavranek P., Fatxutdinov R., SHevchuk D. va boshqalarning asarlarida koʻrib oʻtilgan. Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlardan yurtboshimiz I.A.Karimov asarlarida shuningdek, A.Vaxobov, A.Oʻlmasov, B.Toshmurodova, K.Karimova, M.Sharifxoʻjaev, N.Jumaev, N.Haydarov, R.Karlibaeva, T.Malikov, U.Burxonov, F.Damidova, SH.Abdullaeva va boshqa bir qator olimlar tomonidan oʻrganilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining obỏekti va predmeti.** Ushbu tadqiqot ishida tadqiqot obyekti qilib O`zbekiston Respublikasi moliya tizimi, predmeti qilib esa moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini aniqlash bilan bilan bogỏliq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olindi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari**. Ishning maqsadi xam davr talabidan kelib chiqqan xolda amaliyot va nazariyani oỏzaro bogỏlab, solishtirib oỏrganish, korxona, tashkilot va firmalarda moliyaviy boshqaruv ahamiyati va tahlil vazifalarini aniqlash, mavjud kamchiliklarni belgilash va ularni bartaraf etish boỏyicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Qoỏyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

-moliyaviy mȩnȩjmȩntning nazariy va konsȩptual asoslarini oỏrganish;

-moliyaviy menejmentning turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar faoliyatidagi xususiyatlarini oỏrganish;

-moliyaviy menejmentda subyektlar faoliyatini boshqarishni axborotlar bilan taỏminlash va moliyaviy hisobotlardan foydalanish;

-korxona aktivlarining mohiyati, ularni boshqarish tamoyillari asosida tahlili (ñUrganch yogỏ-moyò AJ misolida) amalga oshirish;

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda pul mablaglari xolati tahlilini oỏrganish;

- korxonalarda moliyaviy barqarorlikni taỏminlash yoỏnalishlarini aniqlash.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari** sifatida Oỏzbekiston Respublikasining xoỏjalik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, Prezident I.Karimovning mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish va bozor munosabatlariga bagỏishlangan farmonlari, asarlari hamda koỏrsatmalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya Vazirligining buxgalteriya xisobi va audit uslubiyatiga doir me`yoriy xujjatlari va yoỏriqnomalari, shuningdek iqtisodchi olimlarning shu soxadagi ilmiy ishlari, statistik maỏlumotlar va boshqalar.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi jami kirish, 2 ta bobdan 6 ta paragraf, xulosa va takliflar, adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan tarkib topgan.

# 1 BOB MOLIYAVIY MENEJMENTNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Moliyaviy mɉnɉjmɉntning nazariy va kontsɉptual asoslari

ʍʍ asrning ikkinchi yarmiga kɉlib bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda turli mulkchilik shakllarining paydo boʻlishi, iqtisodiyotni bozor qonuniyatlariga asoslangan holda boshqarish tizimining takomillashuvi, biznɉsning turlari va zamonaviy yoʻnalishlarini vujudga kɉlishi hamda ular faoliyatlarini samarali amalga oshirishda oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish, Ⱶizmat koʻrsatish sohalarida moliyaviy rɉsurslarning ahamiyati va ularni optimal boshqarishni tashkil qilish moliyaviy mɉnɉjmɉntni shakllanishiga muhim asos boʻldi.

Moliyaviy menejment korxonalar moliyaviy holatini, moliyaviy resurslar harakatini boshqaradi va moliyaviy resurslar xavfsizligini taʻminlaydi. Shu bilan birgalikda korxonalarda boshqaruv moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy menejment oʻz funksiyalari bilan bartaraf etadi va korxonalar moliyaviy barqarorligini taʻminlaydi.

Menejmentni umumiy koʻrinishda ishlab chiqarishni iqtisodiy boshqarish tizimi kabi hisoblash mumkin, qaysiki boshqaruv tamoyillari, metodlari, shakl va usullari jamlanmasini oʻz ichiga olgan. Haqiqatda menejment boshqaruv nazariyasi va samarali boshqaruvning amaliy namunasi bilan bogliqdir.

Boshqaruv oʻziga boshqaruv taʻsirini tayyorlash va amalga oshirish jarayonini taqdim etadi. Boshqaruv taʻsiri - bu boshqaruv maqsadiga erishish uchun moʻljallangan boshqaruv obyektlariga boʻlgan taʻsirdir. Boshqaruv taʻsirini tayyorlash oʻz ichiga yigim, zarur maʻlumotlarni uzatish va qayta ishlash, qaror qabul qilishni oʻz ichiga oladi. Menejment har jihatdan oʻzining qarorlarini iqtisodiy tushunchalarda boshchilik qiladi. Shuning uchun menejmentning istalgan faoliyati ï bu iqtisodiy xarakterdagi tadbirdir. Menejment asosida maqsadli yoʻnaltirilgan qidiruv, uzluksiz taʻlim va barcha resurslar, shu jumladan moliyaviy

resurslardan yanada samarali foydalanish uchun qilinadigan tashkilot ishlari yotadi. Moliyaviy menejment umumiy menejmentning bir qismi xisoblanadi.

Moliyaviy menejmentni moliyaviy resurslar xarakatini boshqarish mexanizmi kabi, kapitaldan ratsional va samarali foydalanish kabi hisoblash mumkin. Moiyaviy menejment moliyaviy resurslar, investisiyani oshirish va kapital xajmini oʻsstirishga yoʻnaltiriladi.

Shunday qilib moliyaviy menejment boshqaruv strategiyasi va taktikasini oʻz ichiga oladi. Strategiya asosida ayni holatda qoʻyilgan maqsadga erishish uchun umum yoʻnalishlar va resurslardan foydalanish chora-tadbirlari tushiniladi. maqsadiga erishilgandan soʻng, strategiya tugatiladi. Taktika - bu aniq sharoitda qoʻyilgan maqsadga erishish uchun aniq metod va usullardir. Boshqaruv taktikasining vazifasi eng optimal qarorlarni va xoʻjalik subyekti xolatiga eng muvofiq boshqaruv metod va usullarini tanlashdan iborat.

Bozor munosabatlari sharoitida korҳona, firma va kompaniya rahbarlari yoki moliyaviy mјnјjјrlar ular iҳtiyoridagi mol-mulkdan va barcha moliyaviy rјsurslardan samarali foydalanish uchun harakat qilish bilan chјklanib qolmasdan, favqulotda va tasodifiy zararlarning natijasida yuzaga kјlishi mumkin boʻlgan zararlarni qoplash tadbirlarini koʻrishi ham lozim. Bunda sugʻurta munosabatlari katta ahamiyatga ega. Korҳonalarning sugʻurta kompaniyalari bilan moliyaviy munosabatlari molk-mulklarni, risklarning barcha turlari, ishchilarning alohida toifadagilarini, ularning ishlari va majburiyatlaridan kјlib chiqqan holda va shu kabilarni sugʻurtalash jarayonida yuzaga kјladi. Lјkin barchasi ushbu jarayonda ishtirokchi subyјktlar nuqtai nazaridan, ikki tomonlama ҳaraktјrga ega boʻlib, ularning moddiy asosini pul mablagʻlarining harakati tashkil qiladi, ulardan foydalanish jarayonida pul oqimlari shakllanadi, moliyaviy munosabatlar jarayonida korҳonalarning ustav kapitali tashkil qilinadi, moliyaviy mablagʻlarning aylanish davri boshlanadi va yakunlanadi, korҳonada turli ҳil maqsadli pul fondlar, jamgʻarmalar va barcha turdagi moliyaviy rјsurslar tashkil qilinadi va foydalaniladi.

**Moliyaviy menejment** korxona moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanishi bilan bogliq tamoyil va metodlar tayyorlashda va boshqaruv qarorlarini amalga oshirishda hamda uning pul mablaglari oborotini tashkillashtirishda o‘zini namoyon etadi.

Korxona moliyaviy faoliyatini samarali boshqarish moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillarini(1.1.1-rasm) amalga oshirishni ta’minlaydi. Bu tamoyillar umumiy menejment tamoyillarining bir qismi bo‘lib hisoblanadi. Buni quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin.

| **moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillari** |
|---|
| ⇩ |
| Umumiy boshqaruv tizimida integratsiyalashuvi |
| Korxona rivojining strategik maqsadiga qaratilganligi |
| Boshqaruv qarorlarining optimalligi |
| Korxona foydasini maksimallashishini ta’minlash |
| Moliyaviy risk darajasini minimallashtirish |
| Korxona rivojining doimiy muvozanatini ta’minlash |
| Kapitalning tez aylanuvchanligini ta’minlash |

**1.1.1-rasm. Moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillari**[1]

Yuqoridagi 1.1.1-rasmda moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillari tasvirlangan bo‘lib, quyida har bir tamoyilga alohida izoh beramiz.

**Umumiy boshqaruv tizimida integrasiyalashuvi**. Istalgan boshqaruv qarorlari korxona pul oqimlari shakllanishiga, uning jismoniy faoliyati natijalariga va korxona moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Moliyani boshqarish bevosita ishlab chiqarish menejmenti, kadrlar va innovatsion menejment va boshqa funksional ko‘rinishdagi menejmentlar bilan bevosita bog‘liqdir.

**Korxona rivojining strategik maqsadiga qaratilganlik**. Moliyaviy faoliyat doirasidagi boshqaruv qarorlari loyihalari joriy davrda korxona faoliyatining bosh maqsadiga, rivojlanishining strategik yo‘nalishiga, xususiy

[1] Muallif tomonidan ishlangan

moliyaviy resurslar rivojlanish koʻrsatkichlariga va xokazolarga muvofiq boʻlishi kerak.

**Moliyaviy boshqaruv qarorlari tanlovi jarayoni optimalligi**. Bu tamoyilni amalga oshirishda korxona moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanish hamda pul oborotlarini tashkil qilish doirasida tayyorlanadigan xar bir boshqaruv qarorlari moliyani boshqarish bo`yicha alternativ taʼsir qilish (amal qilish) imkoniyatlarini hisobga olish kerakligi koʻzda tutiladi. Mavjud boʻlgan boshqaruv qarorlarining alternativ loyihalarini amalga oshirish uchun tanlash korxona me`zon-oʻlchovlar tizimiga, belgilangan moliyaviy idealogiyasiga, moliyaviy strategiyasiga yoki aniq moliyaviy siyosatiga hamda aniq davr mobaynida korxona resurslari cheklanganligiga asoslangan boʻlishi kerak.

**Boshqaruv qarorlari shakllanishining kompleks xarakterligi**. Korxona moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanish hamda pul oborotlarini tashkil qilish doirasida tayyorlanadigan barcha boshqaruv qarorlari chambarchas shaklda oʻzaro bogliq va uning moliyaviy faoliyati natijalariga bevosita va bilvosita taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun moliyaviy menejment korxona moliyaviy faoliyati umumiy natijaviyligiga oʻzining xissasini qoʻshadigan, oʻzaro bogʻliq boshqaruv qarorlar tayyorlashni taʼminlovchi kompleks boshqaruv tizimi kabi qaralishi kerak.

**Yuqori tebranuvchan boshqaruv tashkiliyligi**. Oʻtgan davrda korxonada ishlangan va amalga oshirilgan moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanish hamda pul oborotlarini optimallashtirish doirasidagi boshqaruv qarorlari moliyaviy faoliyatning kelgusi bosqichlarida har doim ham qayta foydalanib boʻlmaydi. Avvalambor, bu tashqi muhit omillari yuqori dinamikasiga bogʻliq va birinchi navbatda - moliya bozori konyukturasi oʻzgarishi bilan.

Tamoyillar bilan tashkil qilinadigan moliyaviy menejment korxona operatsion faoliyatini yuqori surʼatlarda oʻsishida kerakli resurs potensialini shakllantirishiga, xususiy kapitalining doimiy oʻsishini taʼminlashga, tovar va moliya bozorlarida uning raqobat holatini oshishiga, strategik istiqbolida barqaror iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashga yoʻl beradi.

Moliyaviy menejment mazmuni va tamoyillaridan uning bosh maqsad va vazifalari shakllanadi.

Moliyaviy menejmentning bosh maqsadi korxona boshqaruvining bosh maqsadi bilan ajralmas bo'lib, u bilan yagona kompleksda amalga oshiriladi.

**Moliyaviy menejmentning bosh maqsadi** korxona kapitalining bozor qiymatini maksimallashtirishni ta'minlash orqali joriy va kelgusi davrlarda korxona egalari farovonligini maksimallashtirish hisoblanadi.

| **Moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari** |
|---|
| Yetarli moliyaviy resurslarni ta'minlash |
| Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlanishi va foydalanishini ta'minlash |
| Pul oborotini takomillashtirish |
| Korxona foydasini maksimallashishini ta'minlash |
| Moliyaviy risk darajasini minimallashtirish |
| Korxona rivojining doimiy muvozanatini ta'minlash |
| Kapitalning tez aylanuvchanligini ta'minlash. |
| Korxona moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqatliligini ta'minlash. Moddiy zaxiralar, debitorlik va kreditorlik qarzlari, pul mablaglarini boshqarish |
| Qimmatli qogozlar portfelini boshqarish. Investisiya faoliyatini boshqarish. |

1.1.2-rasm. Moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari[2]

1.1.2-rasmda moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari tasvirlangan. Moliyaviy menejment bosh maqsadiga erishishi uchun ushbu asosiy vazifalarni amalga oshiradi. Quyida bu haqda to'xtalib o'tamiz.

**Yetarlicha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash**. Bu vazifa korxonada kelgusi davrda moliyaviy resurslarga bo'lgan umumiy ehtiyojini belgilash, ichki manbalar hisobiga xususiy moliyaviy resurslarni jalb qilish xajmini maksimallashtirish, tashqi manbalar hisobiga o'z moliyaviy resurslari shakllanish ma'qulligini aniqlash, jalb qilinadigan zayom kapitalini boshqarish, potensial

---

[2] Muallif tomonidan ishlangan

moliyaviy resurslar shakllanishi tuzilmasini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

**Moliyaviy resurslarni eng samarali taqsimlanishini va foydalanilishini taâminlash**. Moliyaviy resurslar taqsimlanishini takomillashtirish korxona iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlarida, ulardan foydalanishning zaruriy mutanosibligi oârnatilishini, investitsion kapitalidan kerakli daromad darajasiga erishish uchun toâlovlar va xokazolarni nazarda tutadi.

**Pul oborotini takomillashtirish**. Bu vazifa korxona pul oqimlarini samarali boshqarish, alohida davrlar bo`yicha pul mablagâlari tushumi va chiqimi xajmlarini bir vaqtda boâlishini, yaâni korxona oborot aktivlari likvidliligini taâminlash yoâli orqali hal qilinadi.

**Korxona foydasi maksimallashishini taâminlash**. Foydani maksimallash tirish korxona aktivlaridan samarali foydalanish, xoâjalik oborotiga qarz mablagâlari jalb qilish, operatsion va moliyaviy faoliyatning eng samarali yoânalishini tanlash hisobiga erishiladi. Foydani maksimallashtirish korxona taâsischilari yoki menejerlarining riskni afzal koârishni hisobga olib, moliyaviy risklar yuz beradigan chegaradagi oârnatiladigan aniq darajani taâminlashi kerak.

**Moliyaviy risk darajasi minimallash**. Bunday minimallashtirishni operatsion va moliyaviy faoliyat xamda moliyaviy investisiya portfeli koârinishlarini diversifikasiya qilish; alohida moliyaviy risklarni tartibga solish va undan qochish; sugâurtalashning ichki va tashqi samarali shakllari yoâli bilan taâminlash mumkin.

**Korxona taraqqiyoti doimiy moliyaviy muvozanatni taâminlash**. Bunday muvozanat korxona moliyaviy barqarorligi va toâlovga layoqatliligining yuqori darajasini xarakterlaydi va kapital va aktivlarning optimal tuzilmasi shakllanishini, turli manbalar hisobiga moliyaviy resurslari shakllanish xajmlarida samarali mutanosiblikni, investitsion ehtiyojlarini oâzi moliyalashtirishda yetarli darajani taâminlaydi.

**Xoâjalik faoliyatida amalda boâladigan ichki va tashqi sharoitlar oâzgarishida kapitalning tez qayta investisiya qilish imkoniyatlarini**

**ta'minlash.**Kapitalni bunday qayta investisiya qilish imkoniyatlarini ta'minlashning muhim sharti amaldagi bor aktivlarning likvidlilik darajasini optimallashishini keltirib chiqaradi hamda uning investitsion loyihalar tarkibidan ajratilgan investitsion dasturlarini amalga oshiradi.

Moliyaviy menejmentning tub mohiyati uning amalga oshirayotgan funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. Umuman olganda, moliyaviy menejment amalga oshiradigan funksiyalarni quyidagi ikki asosiy guruhga ajratish mumkin.




Bozor munosabatlari sharoitida mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish eng avvalo tizilmada boshqaruv rolini oshirishdan boshlanadi. Chunki, boshqaruv vositasida korxona o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal qiladi va istiqboldagi strategik maqsadlarni amalga oshiradi. Umuman olganda, yuqoridagi funksiyalarning birinchisida har qanday boshqaruv shaklining umumiy ko'rinishi tavsiflanadi, uning tarkibiga asosan quyidagilar kiradi:

- tashkil etish,
- tahlil,
- rejalashtirish,
- rag'batlantirish (motivatsiya)
- nazorat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining turlari, amalga oshiradigan xizmatlar, bajaradigan ishlarning hajmidan kelib chiqqan holda boshqaruv tizimini yaratadilar. Albatta, har qanday xo'jalik

faoliyati dastlab tashkil qilinayotgan davrda undagi boʻlinmalarning quyi va yuqori darajalari, huquq va majburiyatlari, javobgarligi, amalga oshiradigan ishlar tartibi va vazifalari belgilab olinadi.

Moliyaviy menejmentning funksiyasi sifatida tashkil etishning asosiy maqsadi - boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarni, shuningdek, ularning oʻzaro aloqa va munosabatlarini shakllantirishdir. Mutanosiblik, uzluksizlik, parallellik,barqarorlik, egiluvchanlik, shuningdek, bir turdagi mehnat predmetlarini bir joyda jamlash, hamda korxonalar faoliyatiga taʼsir qiluvchi omillar va tashqi muhitning oʻzgarishiga mos holda, ularda boshqaruvning tashkiliy tizimini ushbu oʻzgarishlarga mutanosib holda oʻzgartirish va takomillashtirib borish kabilar tashkil etishning asosiy shartlari boʻlib hisoblanadi. Korxonalarda moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etilishi koʻp jihatdan tahlil ishlarini aniq va toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganligiga bogʻliqdir, uning yordamida korxonalarning toʻlov qobiliyati, likvidliligi va moliyaviy barqarorligini, barcha moliyaviy-xoʻjalik jarayonlarining sodir boʻlishi va hodisalarni davriy kuzatish, umuman moliyaviy-iqtisodiy holatini baholash imkoniyatiga ega boʻlish mumkin. Tahlil yordamida korxonaning barqaror rivojlanishiga toʻsqinlik qilayotgan kamchiliklar aniqlanadi va ushbu kamchiliklar bartaraf etiladi, xoʻjalik subyektini yanada rivojlantirish yoʻllari belgilanadi yoki samarali ishlashni taʼminlaydigan yoʻnalishga oʻtkaziladi.

Rejalashtirish – moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Rejalashtirish funksiyasi mavjud resurslar hamda ularning chegaralanganligini inobatga olgan holda korxonaning maqsadlariga erishish yoʻllarini belgilashdan iborat. Ishlab chiqarishni bozordagi holatga mos kelishini oʻrganish, barcha turdagi resurslar va kapitaldan samarali foydalanishni eng maqbul yoʻllarini tanlash, qoʻshimcha moliyaviy mablagʻlar jalb qilish yoʻllarini izlab topish va shu kabilar rejalashtirish funksiyasiga misol boʻla oladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish funksiyasining muhim jihati shundaki, bunda korxonalar xoʻjalik faoliyatining asosiy koʻrsatkichlari bozordagi holatdan kelib chiqqan holda, mazkur tovar va xizmatga boʻlgan talab va

taklifning qay holatda ekanligi, raqobatning darajasi va shu kabi omillarga bogʻliq holda belgilanadi. Rejalashtirish bevosita tahlil bilan bogʻliq boʻlib, asosan uning yakuniy natijalariga qarab aniqlanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday xoʻjalik subyektlarining oʻz oldiga qoʻyilgan maqsadlarini samarali amalga oshirish, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohasini yanada rivojlantirishda ushbu korxona, firma va kompaniyalarida faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlarning roli va xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda ragʻbatlantirish funksiyasini amalga oshirish jarayonida, korxona boshqaruv tizimining turli boʻlimlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning korxona tomonidan belgilangan moliyaviy rejalarni, vazifalarni toʻliq bajarganligi, xizmat koʻrsatish va servis sohasini rivojlantirishda oʻz hissasini qoʻshgan hamda mavjud moddiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalangan holda ishlab chiqarish hajmini oshirganliklari uchun ushbu xodimlarni ragʻbatlantirish va mukofotlash yoki aksincha, ushbu vazifalarni amalga oshirishda sustkashlikka yoʻl qoʻygan va befarqlik bilan yondashgan xodimlarga nisbatan maʼlum bir choralar koʻrish, tizimi yaratiladi.

Moliyaviy menejmentning ragʻbatlantirish funksiyasini toʻgʻri tashkil etilishi, korxonada mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilanishiga, xodimlar malakasini oshishiga olib keladi, bu esa oʻz navbatida, bevosita korxona xoʻjalik faoliyatining rivojlanishiga taʼsir koʻrsatadi.

Nazorat funksiyasining mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: korxonada belgilangan reja koʻrsatkichlarini haqiqatda qay darajada amalga oshirilayotganligi yoki bajarilmayotgan boʻlsa bunday holatlarni oʻz vaqtida aniqlash, hamda ushbu holatlarni paydo boʻlish sabablarini batafsil oʻrganish va bunday kamchiliklarni bartaraf etishda tezkor choralar koʻrishdan iborat.

Moliyaviy menejmentning ushbu funksiyasini amalga oshirilishi korxonalarda ichki nazoratni tashkil qilish tizimi, nazorat qilinadigan koʻrsatkichlarning koʻlamini aniqlash bilan bogʻliqdir.

Moliyaviy menejmentning keyingi guruh funksiyalari uning alohida boshqaruv faoliyati xususiyatlarini tasniflaydi. Uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- aktivlarni boshqarish;
- kapitalni boshqarish;
- investitsiyalarni boshqarish;
- pul oqimlarini boshqarish;
- moliyaviy risklarni boshqarish.

**Aktivlarni boshqarish**. Korxonalar xoʻjalik faoliyatining hajmi va amalga oshirilayotgan operatsiyalar koʻlamidan kelib chiqqan holda uning turli xildagi aktivlarga boʻlgan talabini aniq oʻrganish, korxona aktivlaridan samarali foydalangan holda ularning tarkibini optimallashtirish va likvidliligini taʼminlash, amortizatsiya hisoblashning eng maqbul yoʻllarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularni moliyalashtirishni optimal yoʻllari va manbalarini tanlash, aktivlarni boshqarish funksiyasining mohiyatini ifodalaydi.

**Kapitalni boshqarish**. Bozor munosabatlari sharoitida har qanday korxonaning oʻz oldiga qoʻygan maqsad va vazifalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslarni optimal yoʻllarini izlab topish va ulardan samarali foydalanish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Korxonaning hozirgi va kelgusidagi faoliyat turlarini amalga oshirishda foydalaniladigan moliyaviy resurslar bilan taʼminlash, kapitalni boshqarish funksiyasining mohiyatini ifodalaydi. Bu asosan, korxonaning kapitalga boʻlgan jami talabini oʻrganish va ulardan samarali foydalanish, moliyalashtirishning eng maqbul yoʻllari va manbalarini aniqlash, qayta moliyalashtirish boʻyicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish kabilarni oʻz ichiga oladi.

**Investitsiyalarni boshqarish**. Korxonalarni moliyaviy barqaror faoliyat koʻrsatishlari va ularni faoliyatlarini rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bogʻliqdir. Investitsiyalarni boshqarish funksiyasi, korxonaning taktik va strategik maqsadlarini amalga oshirishga yoʻnaltirilgan investitsiya siyosatini ishlab chiqishdan iborat. Bunda asosan,

korxonaning faoliyat turi va moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda unga koóproq moliyaviy manfaat keltiruvchi va eng maqbulini tanlash maqsadida, investitsion loyihalarning samaradorligi va qaytimini baholash, kapital qoóyilmalar budjetini ishlab chiqish, qimmatli qogóozlar portfelini tashkil qilish, boshqarish va boshqalar amalga oshiriladi.

**Pul oqimlarini boshqarish**. Korxonalarning joriy va kundalik faoliyatini amalga oshirishda pul oqimlarini boshqarish muhim rol oóynaydi.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligi, likvidliligi va toólovga qobilligi hamda boshqa iqtisodiy koórsatkichlarning yuqori ekanligi koóp jihatdan ushbu funksiyaning toógóri va oqilona amalga oshirilishiga bogóliqdir. Korxonalarda pul oqimlarini kirib kelishi va chiqib ketishini toógóri tashkil etish, ular ustidan doimiy nazoratni olib borish, vaqtincha boósh turgan moliyaviy mablagólardan optimal foydalanish va shu kabilar pul oqimlarini boshqarish funksiyasi mohiyatini ifodalaydi.

**Moliyaviy risklarni boshqarish**. Hozirgi raqobat muhiti rivojlangan bir davrda tadbirkorlik faoliyatining maqsadi kam xarajat evaziga koóproq daromad olishdan iborat. Oóz navbatida, har qanday xoójalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida, tijorat faoliyatining turi va hajmidan kelib chiqqan holda maólum bir yoóqotishlar yoki tavakkalchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklar (tavakkalchilik) xoójalik faoliyatini tashkil qiluvchi muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy risklarni boshqarish funksiyasi yordamida, xoójalik faoliyatida yuzaga kelgan risklarning turlarini aniqlash, ushbu risklarning xatarlilik darajalarini baholash va buning natijasida yoóqotishlar koólami va hajmini belgilash mumkin boóladi. Olingan maólumotlar va tahlil natijalariga asoslangan holda, risklarni boshqarishning kompleks chora-tadbirlar tizimi uziladi: ularni diversifikatsiyalash va sugóurtalash; risklarning alohida turlari minimallashtiriladi va profilaktik ishlar amalga oshiriladi.

## 1.2. Turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarda moliyaviy menejment xususiyatlari

Moliyaviy menejmentning maqsadi, xo'jalik sub'ektining maqsadlari va iqtisodiy strategiyalaridan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy menejmentning maqsadi korxonaning maqsadlari bilan to'g'ri kelishi mumkin. Korxonaning uzoq muddatga belgilangan strategik maqsadlarini amalga oshirish va ularning xo'jalik-moliyaviy faoliyatini rivojlantirish, bankrotlikni va yirik moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish, keskin raqobat muhitida bozorda o'z o'rniga va raqobatchilar orasida ma'lum ustunlikka ega bo'lish, xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish va sotish hajmini unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni inobatga olgan holda bosqichma-bosqich oshirib borish hisobiga foydani ko'paytirish va pirovardida korxonaning ta'sischilari, manfaatdor shaxslar va mulkdorlar daromadlarini ko'paytirish, moliyaviy menejmentning asosiy maqsadlarini ifodalaydi.

Hozirgi kunda moliyaviy menejment maqsadlarining eng muhimlari qaysilar degan savolga, iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil qarashlar mavjud. Ko'plab xorijiy adabiyotlarda korxonalarda moliyaviy menejmentning maqsadlarini quyidagi uch guruhga ajratib o'rganiladi:

- foydani maksimallashtirish va korxona egalarining moliyaviy talablarini qondirish;
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- mahsulot va xizmatlar realizatsiyasini maksimallashtirish (ya'ni, korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini oshirish).

Kompaniyalarning o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishish ko'p jihatdan moliyaviy menejerni boshqaruv qarorlarini to'g'ri va aniq qabul qilishiga bog'liqdir. Moliyaviy menejer belgilangan maqsadlarga erishishda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha to'g'ri va oqilona boshqaruv qarorlarni qabul qilishi kerak bo'ladi:

- operatsion faoliyat (tahlil, rejalashtirish, bashoratlash va korxonaning moliyaviy holatini nazorat qilish);

- moliyalashtirish – jalb qilingan va o'z mablag'lari manbalarini boshqarish (moliyaviy qarorlar qabul qilish);
- investitsiyalar – investitsiya siyosati va aktivlarni boshqarish (investitsion qarorlar qabul qilish).

Ushbu yo'nalishlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qarorlar qabul qilishda aloxida kompleks vazifalar tizimi belgilab olinadi. Korxonalarda moliyaviy boshqaruvni tashkil etish jarayoni va uning vazifalari yoki boshqacha qilib aytganda moliyaviy menejmentning kompleks vazifalarini, bizningcha quyidagicha tasniflash mumkin (1.2.1-rasm).

Bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda korxonalar mulkchilik shakli va xo'jalik faoliyatining turlari hamda iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlarining uzoq muddatli strategiyalari va boshqaruv tizimini mustaqil holda belgilaydilar. Ushbu maqsadlarga erishishda korxonalar o'z oldiga aniq vazifalarni qo'yib oladi va belgilangan vazifalar ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, korxonalarda moliyaviy menejmentning maqsad va vazifalari, bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo'jalik faoliyatini uzluksiz ravishda yaxshilab va takomillashtirib borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.




**1.2.1-rasm. Moliyaviy mȩnȩjmȩntning komplȩks vazifalari[3].**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korҳona oʻzining moliyaviy siyosati va ustuvor yoʻnalishlarini mustaqil bȩlgilash, ishlab chiqarish va ҳizmat koʻrsatish koʻlamini oʻzining moddiy va moliyaviy imkoniyatlaridan kȩlib chiqqan holda kȩngaytirish, pirovardida, joriy va stratȩgik vazifalarni oqilona bajarilishi natijasida, korҳonaning moliyaviy va iqtisodiy koʻrsatkichlarini barqarorligini taʼminlashlari mumkin boʻladi. Albatta, korҳonalar moliyaviy siyosatidan hamda

[3] B.Toshmurodova, O.Hamdamov Moliyaviy menejment.25-bet

boshqaruv tizimining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularda moliyaviy menejmentni tashkil etish yo'nalishlari va uning tadbiq etish sohalari belgilab olinadi.

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimi bevosita moliyaviy menejerning funktsiyalari va amalga oshiradigan vazifalari, bajaradigan ishlariga bog'liq holda tashkil qilinadi. Korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etish jarayoni yoki ularning moliyasini boshqarish tizimi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi yoki operatsiyalar ko'lami, mulchilik shakli va faoliyat turining xilma xilligiga bog'liq holda shunchalik murakkab tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Albatta, xar bir korxonaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unda moliyaviy menejmentning o'rni, roli va tashkil qilish shartlari o'ziga mos holda farqlanadi.

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etishda xususan, moliyaviy resurslarni tashkil qilish va boshqa manbalar hisobiga moliyalashtirish shartlari, ularni taqsimlash usuli (metodi) va yo'nalishlari, asosan quyidagi jihatlarga bog'liq holda farqlanishi mumkin bo'ladi:

- xo'jalik-moliyaviy faoliyatining ko'lami yoki xajmi;
- korxonalar rivojlanish siklining bosqichlari;
- biznesni yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari va boshqalar.

Amalga oshiriladigan faoliyat ko'lamini (ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan maxsulotlar xajmi, kapital qo'yilmalar, ishchi xodimlar soni va shu kabilar) inobatgan olgan holda korxonalarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin: yirik, o'rta va kichik. Korxonalarning ushbu guruxning qay biriga mansubligi hamda ularning xajmi, bevosita moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojining miqdori va moliyaviy faoliyat turlarining xilma xilliga ham, moliyaviy boshqaruvning amalga oshirish tizimini tashkil qilishga, hamda uning ixtisoslashtirish darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni korxonalarning xajmiy nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ularda moliyaviy boshqaruv tizimi va funksiyalari, moliyaviy operatsiyalar turlari va ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish uchun kerakli moliyaviy resurslarning miqdori belgilanadi.

Korxonalar o‘zlarining butun faoliyati davomida bir qancha taraqqiyot jarayonlari yoki rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tadi. Rivojlanishning yoki taraqqiy etishning ushbu bosqichlarini falsafiy nuqtai nazardan insonning tug‘ilgandan to keksalikkacha bo‘lgan davriy hayotiy bosqichlariga ham qiyoslasa bo‘ladi.

Korxonalar hayotiy siklining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ajratish mumkin: “tug‘ilish”, “ulg‘ayish”, “mustaqil davri”, “keksayish”.

Korxonalarning har bir rivojlanish bosqichida ular faoliyatlarini moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoji, kapitalni jalb qilish imkoniyatlari, amalga oshirilayotgan faoliyatlarida yoki operatsiyalarida risklarni darajalari, moliyaviy munosabatlarda ishtirokchi subyektlarning soni, investitsion faoliyatlarni amalga oshirish imkoniyatlari, budjet va boshqa moliya muassalari oldidagi majburiyatlari, ularning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari va boshqalar turlicha bo‘ladi. Korxonalarning dastlabki “tug‘ilish”, “ulg‘ayish” bosqichlarida ularda moliyaviy resurslarga bo‘lgan talab darajasi nisbatan yuqori bo‘ladi. Bunday turdagi korxonalar moliyaviy mablag‘larni jalb qilish borasida agressiv moliyaviy siyosatni amalga oshiradilar, olingan daromadlarni barchasini xo‘jalik faoliyatini reinvestitsiyalashga yo‘naltirishi yoki uning ko‘p qismini qaytadan biznesga sarflashlari mumkin bo‘ladi. Korxonalarning dastlabki rivojlanishi davrida bunday holatlarning kuzatilishi tabiiy hisoblanadi, chunki ular kelgusida o‘zlarining moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlash va to‘lovga qobillik ko‘rsatkichlarini oshirish, istiqboldagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun moliyaviy zamin yaratishga asosiy e’tiborni qaratadi. Bunday holatlarni korxonalarning keyingi (“mustaqil davri”, “keksayish”) rivojlanish davrlarida kuzatadigan bo‘lsak, ularning moliyaviy resurslarga bo‘lgan talab darajasi ma’lum ma’noda muvofiqlashadi, olingan daromadlar nafaqat xo‘jalik faoliyatni qayta moliyalash va tartibga solishga yo‘naltiriladi balki turli investitson loyihalarni amalga oshirish, faoliyat turlarini diversifikatsiyalash va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga sarflanadi hamda ushbu jarayonlarni moliyalashtirishning aksariyat qismi o‘z manbalari hisobiga ta’minlanadi. Korxonalar moliyasini yanada samarali

boshqarish va tashkil qilish, ularda moliyaviy menejment tizimini toʻgʻri yoʻlga qoʻyishning asosiy talablaridan biri ham, korxonalarning har bir rivojlanish bosqichini asosiy jihatlari, xususiyatlarini hisobga olish va mukammal oʻrganish hisoblanadi.

Korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishda yana bir asosiy eʻtibor qaratilishi lozim boʻlgan jihat ularning tashkiliy-huquqiy shakllari hisoblanadi. Bizga maʻlumki, korxonalarning xoʻjalik faoliyati yoki tadbirkorlik faoliyat maʻlum bir tashkiliy-huquqiy shaklga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Xorijiy va milliy amaliyotdagi mavjud barcha korxonalarning mulkchilik va tashkiliy shakllari hamda biznesni yuritishning turli xil koʻrinishlari mavjud, ularda ushbu jarayonlarni amalga oshirilish tizimi, mulkiy egalik qilish va javobgarlik darajalari hamda boshqa jihatlari farqlansada, lekin ularning barchasi quyidagilardan biriga taʻluqli boʻlishi mumkin:

- yakka, yoki shaxsiy egalik (sole proprietorship);
- sheriklik, yoki hamkorlik (partnership);
- aksiyadorlik jamiyati, yoki korporatsiya (corporation).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar oʻzlarining moliyaviy siyosatidan kelib chiqqan holda ularning qanday tashkiliy-huquqiy shaklda faoliyat olib borishlarini belgilaydilar. Iqtisodiy nuqtai nazardan, tadbirkorlik faoliyatini yuritishning yuridik shakllari oʻrtasidagi asosiy farqlar boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

- daromadlarning taqsimlanishi;
- majburiyatlar boʻyicha javobgarlik;
- risklarning taqsimlanishi;
- tadbirkorlik faoliyati yoki xoʻjalik faoliyatini nazorat qilish;
- mulkiy huquqlarni boshqa tomonga oʻtkazish;
- moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari.

Shaxsiy egalik, oʻz nomidan kelib chiqqan holda, bir kishining shaxsiy mulkka egaligi hisoblanadi. Bunday firma, korxonalarning aktivlari, majburiyatlari va daromadlari uning egasini aktivlari, majburiyatlari va daromadlari hisoblanadi.

Moliyalashtirish firma egasining oʻz mablagʻlari hisobiga yoki uchinchi shaxsdan olingan qarz (zayom) mablagʻlari hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Firma, korxonaning egasi barcha majburiyatlari boʻyicha shaxsan oʻzi, mavjud moliyaviy va moddiy resurslari, mulklari orqali javob beradi, faoliyat natijasida koʻrilishi mumkin boʻlgan zarar tavakkalchiligini oʻz zimmasiga oladi, yaʻni uning javobgarlik darajasi cheklanmagan.

Hamkorlik asosida tashkiliy tuzilishga ega korxonalar shaxsiy egalik shakliga asoslangan korxonalardan, ularda mulkdorlarning yaʻni korxona egalarining son jihatdan koʻpligi bilan farqlanadi. Sherikchilikni moliyalashtirish jarayoni sheriklarning oʻz mablagʻlari hisobiga yoki qarz mablagʻlar hisobiga amalga oshiriladi.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunga asosan, ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xoʻjalik yurituvchi subyekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Jamiyat qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning har qanday turlarini amalga oshirish chogʻida huquqlarga ega boʻladi va majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va oʻzining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega boʻladi, oʻz nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda daʻvogar va javobgar boʻlishi mumkin. Jamiyat oʻz majburiyatlari yuzasidan oʻziga tegishli barcha mol-mulki bilan javobgar boʻladi. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar boʻlmaydilar va uning faoliyati bilan bogʻliq ziyonlarni oʻzlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida toʻlaydilar. Aksiyalar haqining hammasini toʻlamagan aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari yuzasidan oʻzlariga tegishli aksiyalar qiymatining toʻlanmagan qismi doirasida solidar javobgar boʻladilar. Jamiyat oʻz aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar boʻlmaydi. Agar jamiyatning nochorligi (bankrotligi) jamiyat uchun majburiy koʻrsatmalarni berish huquqiga ega boʻlgan aksiyador sifatidagi shaxsning gʻayriqonuniy xatti-harakatlari tufayli vujudga keltirilgan boʻlsa,

mazkur aksiyador zimmasiga jamiyatning mol-mulki ȩtarli boʻlmagan taqdirda uning majburiyatlari boʻyicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatining ustavida tȩgishli huquq nazarda tutilgan taqdirdagina, aksiyador majburiy koʻrsatma bȩrish huquqiga ega boʻladi. Jamiyat uchun majburiy koʻrsatmalar bȩrish huquqiga ega boʻlgan aksiyador jamiyatning muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida nochor (bankrot) boʻlib qolishini oldindan bilib, oʻz huquqidan uning ana shunday harakatni amalga oshirishini koʻzlab foydalangan holdagina jamiyatning nochorligi (bankrotligi) aksiyadorning harakatlari tufayli vujudga kȩltirilgan dȩb hisoblanadi. Davlat va uning organlari jamiyat oʻz zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar boʻlmaydilar, Ҳuddi shuningdȩk jamiyat ham davlat va uning organlari olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar boʻlmaydi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari sharoitida, korҲonalarda moliyaviy mȩnȩjmȩnt tizimini oqilona tashkil etish va takomillashtirish, korҲonalar faoliyatiga taʻsir etuvchi barcha omillarni inobatga olgan holda ustuvor yoʻnalishlarni bȩlgilash, istiqbolda stratȩgik maqsadlarga ogʻishmay erishish kabilar koʻp jihatdan moliyaviy mȩnȩjȩrning yoki korҲonalar moliyaviy faoliyatini boshqarishda masʻul hodimlarning vazifalari va majburiyatlarini aniqlab olishni taʻqozo etadi. Hozirgi kunda korҲonalar faoliyatini samarali boshqarishda moliyaviy mȩnȩjȩrlar yoki korҲonalar moliya boʻlinmalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri korҲonalarning moliyaviy faoliyatiga taʻsir etuvchi barcha omillarni chuqur oʻrganish, iqtisodiyotda roʻy bȩrayotgan barcha oʻzgarishlardan doimo Ҳabardor boʻlish hamda korҲonalar faoliyatini tashqi iqtisodiy-ijtimoiy muhitga mos holda muvofiqlashtirib borish kabilar hisoblanadi.

Korxonalarda boshqaruv tizimini funksional holatda qurilishi, ularda boshqaruvning bajaradigan funksiyalari va faoliyat turlari boʻyicha boʻlinishiga asoslanadi. Bunda korxonaning alohida yoʻnalishlari va faoliyat turlari boʻyicha masʻul boʻlgan boshqaruv subyektlarining bajaradigan funksiyalari, huquq va majburiyatlari taqsimlanadi.

Xalqaro amaliyotda korxonalar moliyaviy faoliyatining alohida yoónalishlari boóyicha javobgarlik markazlari tashkil qilinib, u markazlarga tayinlangan rahbarlar oózlariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda vakolatlari doirasida javobgarlikni oóz zimmalariga oladilar. Ushbu javobgarlik markazlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Xarajatlar markazi. Bu yoónalish boóyicha tayinlangan masôul rahbar yoki menejer, korxonalar tomonidan tasdiqlangan budjet dasturidan kelib chiqqan holda mablagólarni toógóri va oqilona sarflanishi boóyicha javobgarlikni oóz zimmasiga oladi; bunday markazlarga mahsulotni qayta ishlovchi, ishlab chiqarish va boshqa boólinmalar kiradi.

2. Daromadlar markazi. Bunda ushbu yoónalish yoki boólim boóyicha masôul shaxs, korxonalarning belgilangan miqdorlarda yoki kutilayotgan hajmdagi daromadlarning shakllanishi hamda kelib tushishi boóyicha kerakli ishlarni amalga oshiradi; masalan-mahsulotlarni realizatsiyasini amalga oshiruvchi boólinmalar.

3. Foyda markazi, korxonalarda rejalashtirilgan foyda miqdoriga erishishni taôminlash boóyicha masôul, rahbarlar hisoblanadi.

4. Investitsiyalar markazi. Korxonalarga ajratilgan investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va ushbu faoliyatdan ijobiy natijalarga erishish, buning hisobiga maólum miqdordagi foydani shakllantirish boóyicha masôul rahbarlar hisoblanadi.

## 1.3. Moliyaviy menejmentda subyektlar faoliyatini boshqarishni axborotlar bilan taôminlash va moliyaviy hisobotlardan foydalanish

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil qilinganligi maôlum maônoda ulardagi axborot (informatsion) bazasi va ularning qanday turlaridan foydalanishlariga ham bogóliqdir. Albatta, har qanday xoójalik subyektlarining faoliyatini toógóri yoólga qoóyish ularda samarali boshqaruv tizimini tashkil qilish hamda istiqboldagi ustuvor yoónalishlarni belgilashda boshqaruv subyektlari, xususan, moliyaviy menejerning axborot taôminot tizimi yoki zaruriy maôlumotlar bilan taôminlanganligi va ulardan foydalanishning samarali tashkil qilinganligi muhim va dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi kunda mamlakatimiz va jahonda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning yuqori surôatlar bilan oózgarayotganligi va takomillashib borayotganligini inobatga olgan holda ushbu tizim korxonalar xoójalik-moliyaviy faoliyatida kundalik zaruriy ehtiyojga aylanib borayotganini koórishimiz mumkin.

Hozirgi kunda davlat budjet daromadlarini tarkibida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar toólaydigan soliqlar va majburiy toólovlar salmoqli oórinni egallaydi. Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri korxonalar faoliyatini rivojlantirish ularni davlat tomonidan qoóllab-quvvatlash, bir soóz bilan aytganda davlatning moliyaviy siyosatini samarali yoólga qoóyilganligi, ham iqtisodiy ham ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Korxonalarning mulkchilik shakli va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlat budjetiga toólaydigan soliqlar va majburiy toólovlar, davlat budjetidan korxonalarni moliyaviy sogólomlashtirish va boshqa maqsadlarda ajratilgan moliyaviy yordamlar, ularga turli xil soliq imtiyozlarini berish yoki korxonalarga nisbatan qonunchilikka asosan jarimalar va sanksiyalar qoóllash kabi munosabatlar jarayonida korxonalarning davlat bilan yoki budjet va budjetdan tashqari fondlari bilan moliyaviy munosabatlari kelib chiqadi. Korxonalarning tijorat banklari bilan yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlari, korxonalarning barcha turdagi moliyaviy, iqtisodiy munosabatlarini amalga oshirishda markaziy boógóinni egallaydi.

Moliyaviy menejmentning axborot taôminot tizimi, tahlil uchun, rejalashtirish va korxona xoójalik-moliyaviy faoliyatining turli yoónalishlari boóyicha boshqaruv qarorlarini tayyorlash uchun zarur maðlumotlarni aniqlash va toóplash jarayonini oóz ichiga oladi. Korxonalarning xoójalikmoliyaviy faoliyatining natijalari bilan qiziquvchilar va ulardan foydalanuvchilarning toifasi turlicha boðladi, chunki buni oóziga yarasha koóplab sabablarini sanab oótish mumkin; masalan, investitsiyalarni kiritish maqsadida investorlar, soliq va boshqa majburiy toðlovlarni doimiy toðlanishini oórganish maqsadida davlat va uning vakolatli organlari, oladigan foydasining hajmini aniqlash uchun aksionerlar va taôsischilar, korxonalar majburiyatlari boóyicha oóz mablagðlarining yetarliligini oórganish maqsadida turli moliyaviy muassasalar va boshqalar. Umuman olganda, korxonalarning moliyaviy maðlumotlaridan foydalanuvchilarni ikki guruhga ajratish mumkin[4](1.3.1-rasm):

1.3.1-rasm. Korxonalarning moliyaviy ma'lumotlaridan foydalanuvchilar




.

Moliyaviy menejmentda axborot (informatsion) koórsatkichlari tizimining shakllanishi har bir korxonalarning tarmoq xususiyatlari,

---

[4] Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

tashkiliyhuquqiy shakllari, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish hajmi, xoʻjalik faoliyatining diversifikatsiyalashuv darajasi va boshqa shartlariga bogʻliq boʻladi. Umuman olganda, moliyaviy menejment axborot (informatsion) bazasining koʻrsatkichlar tizimi alohida guruhlar boʻyicha turkumlanadi:

1. **Davlatning makroiqtisodiy rivojlanish koʻrsatkichlari**. Har bir korxona oʻzining iqtiqboldagi strategik maqsadlarini belgilash va ularni amalga oshirish, moliyaviy holatini tahlil qilish hamda korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda kelgusida erishiladigan moliyaviy natijalarni bashorat qilishda, bevosita tashqi iqtisodiy-ijtimoiy muhitdagi holat va koʻrsatkichlar asosiy omillardan biri boʻlib xizmat qiladi. Ushbu koʻrsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- davlat budjetining daromadlari;
- davlat budjetining xarajatlari;
- budjet taqchilligi;
- aholi daromadlarining hajmi;
- banklardagi aholi omonatlari;
- inflyatsiya darajasi;
- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi.

2. **Tarmoqlar rivojlanishini tavsiflovchi koʻrsatkichlar**. Bu guruhdagi axborot koʻrsatkichlar tizimidan korxonalarda operativ moliyaviy faoliyat turlari boʻyicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi. Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy menejerlarning, korxonalar moliyaviy xoʻjalik faoliyatlarini oqilona boshqarishning muhim omillaridan biri, ushbu tarmoqda faoliyat yuritayotgan raqobatchi korxonalar va kontragentlarining moliyaviy ahvolini keng oʻrganish va ularni tahlil qilish hisoblanadi. Moliyaviy menejer tomonidan bu guruhdagi koʻrsatkichlarni oʻrganish uchun ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilingan yoki chop etilgan hisobot materiallari, reyting maʼlumotlar, axborot xizmatlari bozorida taklif qilingan pullik biznes-maʼlumotnomalar manba boʻladi.

- tijorat banklari tomonidan taklif qilinayotgan depozitlarning o‘rtacha foiz stavkalari;
- har bir valuta turi bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan rasmiy valuta kurslari;
- tijorat banklari tomonidan valuta oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan valuta kurslari;
- sug‘urta kompaniyalari tomonidan taklif qilinayotgan sug‘urta turlari, sug‘urtalash jarayoni va ularni amalga oshirish shartlari;
- fond birjasida alohida turdagi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tuzilgan shartnomalar hajmi va narxlarning darajasi va boshqalar.

Bu turdagi ayrim ko‘rsatkichlar moliyaviy menejerning kundalik ehtiyojlaridan biri sanaladi, ushbu axborotlarning manbai sifatida internetdagi maxsus saytlar, kunlik valuta va fond birjalarida amalga oshirilgan operatsiyalarning natijalari haqida e’lon qilinadigan yangiliklar va boshqalar hisoblanadi.

4. **Korxonalarning moliyaviy va boshqaruv hisobi ko‘rsatkichlari**. Bu guruhdagi ko‘rsatkichlar tizimi moliyaviy menejmentning axborot asosini tashkil qiladi. Korxonalar xo‘jalik-moliyaviy faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish, hamda tahlil, bashorat (prognoz) va rejalashtirish ishlarini amalga oshirish, bevosita ushbu tizimning ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Bundan tashqari, korxonalarning joriy xo‘jalik-moliyaviy faoliyatini nazorat qilish, moliyaviy imkoniyatlari va samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash, moliyaviy strategiyalari va siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy menejmentning amalga oshiradigan aniq funksiyalari va vazifalarini belgilaydi. Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etishda, moliyaviy mexanizm tushunchasi uning moliyaviy menejment tizimidagi o‘rni va ahamiyati, moliyaviy menejmentning mexanizmi ularning o‘zaro o‘xshashlik tomonlari, hamda bularni moliyaviy menejerning faoliyatida tutgan o‘rniga alohida e’tibor berish lozim. Chunki, bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda korxonalar moliyasini boshqarish, moliyaviy mexanizm yordamida amalga oshiriladi.

Moliyaviy mexanizm – bu moliyaviy munosabatlarni tashkil qilish, moliyaviy resurslarni shakllanishi va foydalanish usullarining yig‘indisi bo‘lib, jamiyat tomonidan, jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish uchun, qulay shart-sharoit yaratib berish maqsadida foydalaniladi. Moliyaviy mexanizm ham moliya tizimining tuzilishi singari quyidagi ikkita yirik sohaga bo‘linadi:

- xo‘jalik subyektlarining moliya mexanizmi;
- davlat moliyasining mexanizmi.

Korxonalar moliyaviy mexanizmi – bu moliyaviy resurslardan foydalanish usullari hamda korxonalar moliyasini tashkil qilish shakllari hisoblanadi. Korxona, firma, kompaniyalarda moliyaviy resurslardan foydalanish jarayoniga to‘xtaladigan bo‘lsak, bunda moliyaviy menejer tomonidan ushbu jarayon, turli moliyaviy usullarni (metodlarni), richaglarni, dastaklarni, tamoyillarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy metodlar – bu moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish shakli, uning xo‘jalik va ishlab chiqarish jarayoni bilan o‘zaro bog‘liqligidir. Korxonalarda u yoki bu moliyaviy metodlarning qo‘llanilishi yordamida xo‘jalik jarayonidagi yuz berayotgan moliyaviy munosabatlarga, moliyaviy resurslarning harakatini boshqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlarning tahliliy natijalaridan kelib chiqqan holda ulardan foydalanishni samaradorligini baholashga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Moliyaviy metodlarni quyidagi rasmda ko‘rsatilgan.

**Korxonalar moliyasini boshqarishda foydalaniladigan metodlar:**




Moliyaviy menejmentda moliyaviy dastak tushunchasini korxonaning har qanday turdagi tuzilgan shartnomalari deb tushuniladi, qaysiki buning natijasida bir vaqtning o‘zida, biron-bir korxonada moliyaviy aktivlarni ko‘payishi va boshqa korxonada esa moliyaviy majburiyatlarni yuzaga kelishi tushuniladi, qarzdorlik bo‘yicha guvohlik beruvchi, sotuvchi sotish jarayonida o‘zini moliyalashtirishni ta’minlovchi, har qanday hujjatdir.

Moliyaviy dastaklar yordamida moliya bozoridagi har qanday operatsiyalar amalga oshiriladi. Korxonalar faoliyatida ularni qo‘llamasdan turib, qo‘shimcha moliyaviy resurslar yoki kapital jalb qilish, moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish, kontragentlar yoki boshqa xo‘jalik subyektlari bilan o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin emas.

Moliyaviy dastaklar birlamchi va ikkilamchi turlarga bo‘linadi. Birlamchi moliyaviy dastaklarga quyidagilar kiradi: joriy operatsiyalar bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlar, kreditlar, aksiya, obligatsiyalar va veksellar.

Ikkilamchi moliyaviy dastaklarga esa: moliyaviy opsionlar, fyucherslar, forvard shartnomlari, foizli va valutaviy svoplar kiradi.

Har qanday jamiyatda korxonalar xo‘jalik faoliyatini oqilona tartibga solish va ular faoliyatini samarali yuritish qonuniy va huquqiy normalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bizga ma’lumki, korxonalar moliyaviy

faoliyatini yuritish, yaôni boshqacha aytganda xoójalik subyektlarining tashkil qilinishidan ularning butun faoliyat davrlarini qamrab oluvchi jarayon bosqichi, davlat tomonidan belgilangan aniq bir chora-tadbirlar, dasturlar, qonunlar, yoóriqnomalar va shu kabilar orqali tashkil qilinadi va tartibga solinadi.

Oôzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxs hisoblangan, alohida balansga va bankda hisob-kitob schetiga ega boôlgan, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq toôlovchi boôlib hisoblangan tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qatôiy nazar moliyaviy hisobot tuzadi va taqdim qiladi. Moliyaviy hisobotda tuzatishlar va oôchirishlarga ruxsat berilmaydi. Agar tuzatishlar kiritilsa, tuzatishlarni kiritgan mansabdor shaxs tomonidan belgilangan tartibda izox berilishi lozim. Oôtgan yillar va joriy hisobot maôlumotlari ular tasdiqlangandan keyin tuzatishlar kiritish lozim boôlgan holda, faqat joriy hisobotda amalga oshiriladi. Yillik moliyaviy hisobotning tekshiruvi natijasida aniqlangan xatoliklar, masalan aniqlangan daromadlar yoki moliyaviy natijalarni kamaytirishlar, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda faqat joriy yilning hisobotida oôtgan yillar daromadlari sifatida aks ettiriladi.

**Buxgalteriya hisobotini shakllantirish.** Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi maôlumotlari asosida tuziladi. Kichik va xususiy tadbirkorlik subôektlarining moliyaviy hisoboti soddalashtirilgan shaklda tuziladi. Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmunini Oôzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilaydi.

Buxgalteriya hisobi toôgôrisidagi qonunning 17-moddasiga[5] binoan shoôba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari boôlgan korxonalar umumlashtirilgan moliyaviy hisobot tuzadi.

Shoôba korxonalarga qoôshilgan xissalar bosh korxonaning moliyaviy hisobotida uning moliyaviy qoôyilmalari sifatida aks ettiriladi.

Yuridik shaxs oôz filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy boôlinmalarini mustaqil balansga ajratishlari mumkin boôlib, ularning balanslari va

[5] Lex.uz. ñBuxgalteriya hisobi toôgôrisidaò gi qonun 13.04.2016y

boshqa hisobot shakllarini oʻzlarining umumlashtirilgan hisobotiga kiritishlari shart.

Umumlashtirilgan hisobotga bosh korxona, uning shoʻba korxonalari, filiallari va vakolatxonalarining moliyaviy hisobotlari ilova qilinadi. Umumlashtirilgan hisobot buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tuziladi.

Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisidagi qonunning 19-moddasiga binoan moliyaviy hisobot quyidagilarga taqdim etiladi:

- Soliq organlariga;
- taʼsis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga;
- davlat statistika organlariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarini Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilaydi.

Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar va boshqalar uchun oshkora hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari, sugʻurta kompaniyalari, bank va kredit uyushmalari, fond va tovar birjalari, investitsiya fondlari va boshqa moliya muassasalari har yilgi moliyaviy hisobotni ularda koʻrsatilgan maʼlumotlarning toʻgʻriligini auditorlar tasdiqlagach, hisobot yili tugaganidan soʻng birinchi maygacha eʼlon qilishlari shart. Xoʻjalik yurituvchi subyekt tugatilgan vaqtida yakuniy moliyaviy hisobot tuziladi. Quyidagi 1.3.3-rasmda moliyaviy hisobot shakllari va ularning tavsifi bayon etilgan.

1.3.3-rasm. Moliyaviy hisobotlarning tarkibi va tavsifi[6]

[6] 6Lex.uz. “Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi qonun 13.04.2016y

| Tavsiflash belgilari | Hisobot shakli, topshirish muddati va joyi. | Tavsifi |
|---|---|---|
| Moliyaviy hisobot shakllari | 1-shakl. ñKorxona balansi ñ | Korxona mulki, kapital va majburiyatlarning muayyan sanaga boôlgan xolati. |
| | 2-shakl. ñMoliyaviy natijalar toôgrisidagi hisobotñ | Korxonaning moliyaviy natijaviyligi |
| | 3-shakl. ñAsosiy vositalarning xarakati toôgrisida hisobotñ | Asosiy vositalar tarkibi, xolati va xarakati. |
| | 4-shakl. ñPul oqimi togôrisida hisobot ñ | Pul mablaglarining xolati va xarakati |
| | 5-shakl. ñXususiy kapital toôgrisida hisobot ñ | Xususiy kapitalning xolati va oôzgarishi |
| | Maôlumotnomalar. | Korxonaning moliyaviy axvoli bilan bogôliq boôlgan boshqa maôlumotlar. |
| Hisobot davri | 1 yanvardan 31 dekabrga qadar (agar korxona oôz faoliyatini 31 oktyabrdan keyin boshlagan boôlsa, uning hisobot davri keyingi 31 dekabrida tugaydi) | Korxonalar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobot shakllarini tuzish muddatlari oraligôi. |
| | Oôzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatda. | Moliyaviy axborotlarni qabul qilish vaqti va topshirish muddatlari. |

**Moliyaviy hisobot elementlari**

| Hisobot shakli | Elementlari |
|---|---|
| ñBalans ñ | Aktivlar, kapital, majburiyatlar |
| ñMoliyaviy natijalar ñ | Daromad, xarajat, natija |
| ñAsosiy vositalarning xarakati ñ | Asosiy vositalar |
| ñPul oqimi ñ | Pul va valyuta mablaglari |
| ñXususiy kapital ñ | Xususiy kapital |
| Korxonaning moliyaviy xolati va uning boshqa obyektlari | Aktivlar, passivlar |

Moliyaviy hisobot elementlari, aktivlar va majburiyatlarni baxolash shakllari

| **T/r** | **Aktivlar va majburiyatlar** | **Baxolanishi** |
|---|---|---|
| 1 | Baholashning o'lchov vositasi | Milliy valyuta ï so'mda |
| 2 | Aylanma aktivlar | Xaqiqiy tannarxida<br>Bozor bahosida (agar xaqiqiy tannarxi yuqori bo'lsa) |
| 3 | Asosiy vositalar | Boshlangĉich qiymatida |
| 4 | Nomoddiy aktivlar | Boshlangĉich qiymatida |
| 5 | Moliyaviy qoĉyilmalar | Milliy buxgalteriya xisobi standartlari boôyicha |
| 6 | Majburiyatlar | Tomonlarning kelishuviga bogĉliq |
| 7 | Huquqiy majburiyatlar (sud karori bilan) | Yuzaga kelgan tegishli summalarda |
| 8 | Potensial majburiyatlar | Dastlabki qiymatida |

Umumlashtirilgan moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ñMoliyaviy hisobot va uni tuzish tartibi to'gôrisida ñ gi yo'riqnomaga muvofiq belgilanadi (OôzR. Moliya vazirligining 2002 yil 5 fevraldagi 5-son yo'riqnomasi).

Umumlashtirilgan moliyaviy hisobot uzining turli bo'limlari, vakolatxonalari, shoôba korxonalari va boshka tarkibiy bo'limlarga ega bulgan korxonalar tomonidan tuziladi xamda yigôma shaklda bosh korxona moliyaviy hisobotida aks ettiriladi. Ularning moliyaviy tahlili bosh korxona tomonidan yoki uning tarkibiy bo'linmalarining o'zida xam o'tkazilishi mumkin

# 2 BOB IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MOLIYAVIY MENEJMENTNI AMALDA QOLLASH HOLATI TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOʻNALISHLARI

## 2.1 Korxona aktivlarining mohiyati, ularni boshqarish tamoyillari asosida tahlili(«Urganch yogʻ-moy» AJ misolida)

Bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda har qanday mulkchilik shaklidagi firma va kompaniyalar oʻzlarining xoʻjalik-tadbirkorlik faoliyatlarini, maʼlum bir turdagi yoki miqdordagi aktivlarga ega boʻlmasdan turib amalga oshirishlari mumkin emas. Kompaniyalarning aktivlari ular balansining aktiv qismida aks ettiriladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan, aktivlar - bu xoʻjalik subyekti tomonidan nazorat qilinuvchi, avvalgi davrlarda qandaydir hodisa yoki jarayon natijasida paydo boʻlgan va bulardan kelajakda xoʻjalik yurituvchi subyekt tomonidan iqtisodiy manfaat olishni koʻzlaydigan resurslar tushuniladi. Keltirilgan tarifdan kelib chiqqan holda kompaniyalarning aktivlari deyilganda, kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini taʼminlash, ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish jarayonini uzluksizligini taʼminlash, ularning bozor qiymatini oshirish va egalarining talablarini qondirish maqsadida xoʻjalik faoliyatida foydalaniladigan iqtisodiy resurslar tushuniladi.

Oʻzbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartiga asosan korxona aktivlari ikki qismdan iborat boʻlib, ular:

uzoq muddatli aktivlar va

joriy aktivlar.

«Uzoq muddatli aktivlar» boʻlimida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar, oʻrnatiladigan uskunalar, kapital qoʻyilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar summalari oshkor qilinishi kerak.

«Joriy aktivlar» boʻlimida tovar-moddiy zaxiralar, kelgusi davrlar xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari,

pul mablagʻlari, qisqa muddatli moliyaviy qoʻyilmalar va boshqa joriy aktivlar summalari oshkor qilinishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona, firma va kompaniyalar aktivlarini maʼlum bir xususiyatlari boʻyicha tasniflash yoki tarkibiy joylashtirib chiqish mumkin boʻladi. Korxona aktivlarini quyidagi xususiyatlari boʻyicha tasniflash mumkin:

I. Bajaradigan vazifalari va shakliga koʻra:

1. Moddiy, yaʼni moddiy xususiyatga ega boʻlgan aktivlar:

- asosiy vositalar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- xomashyo, material va boshqa ishlab chiqarish zaxiralari;
- tayyor mahsulot va tovarlar;
- boshqa moddiy aktivlar.

2. Nomoddiy, yaʼni nomoddiy xususiyatga ega boʻlmagan aktivlar:

- yerosti va tabiiy boyliklardan foydalanish huquqi;
- sanoat nusxalari vamodellaridan foydalanish huquqi;
- «nou-xau», patentlar, mahsulot belgilari va markalari;
- «gudvil» va korxonaning boshqa mulkiy huquqlari va qiymatliklari.

3. Moliyaviy aktivlar, barcha moliyaviy dastaklarni (instrument)larni tavsiflovchi aktivlar:

- milliy va xorijiy valutadagi pul aktivlari;
- debitorlik qarzlari;
- qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qoʻyilmalar.

II. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish tavsifiga koʻra:

1. Uzoq muddatli aktivlar, yaʼni koʻp marotaba xoʻjalik faoliyatida ishlatiladigan va oʻzining qiymatini mahsulot tannarxiga oʻtkazib boradigan aktivlar.

2. Joriy aktivlar, bir ishlab chiqarish yoki tijorat sikli jarayonida toʻliqishlatiladigan aktivlar.

III. Korxona faoliyatini turiga xizmat koʻrsatish boʻyicha:

1. Operatsion aktivlar, foydani shakllantirish maqsadida joriy faoliyatni amalga oshirishda ishlatiladigan aktivlar.

2. Investitsion aktivlar, korxonaning investitsion faoliyatini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan aktivlar.

IV. Aktivlarning likvidlilik darajalariga qarab:

1. Absolut likvid aktivlar;

2. Yuqori likvidli aktivlar;

3. Past likvidli aktivlar;

4. Nolikvid aktivlar.

V. Mulkiy egaligini tavsiflovchi aktivlar:

1. Ijaraga olingan aktivlar;

2. O'ziga tegishli (xususiy) aktivlar

VI. Aktivlar vujudga kelishining moliyaviy manbaiga ko'ra:

1. Yalpi aktivlar, ya'ni o'z va jalb qilingan (qarz) mablag'lar hisobiga hosil bo'lgan aktivlar;

2. Sof aktivlar, faqat o'z mablag'lari hisobiga shakllangan aktivlar.

Korxonalarda aktivlarni tashkil qilishdan asosiy maqsad, joriy faoliyatni uzluksizligini ta'minlashda ularga bo'lgan talabni qondirish, hamda korxonalar xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida ularning tarkibini optimallashtirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda, korxonalarda aktivlarni tashkil qilish va ularni boshqarishda quyidagi asosiy tamoyillarni hisobga olish lozim:

1) joriy faoliyatni rivojlantirish istiqbollari va uni diversifikatsiya qilishning yo'nalishlari - bunda korxonalar joriy faoliyatini rivojlantirish istiqbollarini belgilash, joriy faoliyatning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda strategiyasini ham ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish hamda istiqbolda korxonaning xo'jalik faoliyat turini diversifikatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari inobatga olinishi nazarda tutiladi. Ayniqsa,ushbu tamoyilni oqilona qo'llanilishi korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruvni tashkil qilish jarayonida dolzarb hisoblanadi.

2) korxonalarda aktivlarni tashkil qilishda ularning hajmi va tuzilishi bilan, mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hajmi va tuzilishini oózaro mosligiga amal qilish; ushbu tamoyilda korxonalarda ishlab chiqariladigan bir birlik mahsulot uchun kerakli xomashyo va materiallar, boshqa turdagi aktivlarni oózaro mutanosibligini taôminlash, hamda ishlab chiqariladigan mahsulot turiga undagi mavjud aktivlarning tuzilishini mosligi ham inobatga olinadi.

3) korxona xoójalik-moliyaviy faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida aktivlar tarkibini optimallashtirish;

4) aktivlardan foydalanish jarayonida ularni aylanuvchanligini oshirish uchun zaruriy sharoitlar yaratish;

5) korxonalarning kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida aktivlarni yuqori texnolologik turlarini tashkil qilish; bunda, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar koórsatishda foydalaniladigan asosiy vositalarning zamonaviy, tejamkor va yuqori rentabellikka ega boólgan turlaridan keng foydalanish, buning hisobiga mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini optimallashtirish, qoóshimcha xarajatlarni kamaytirish kabi ijobiy natijalarga erishish, pirovardida esa korxonada qoóshimcha moliyaviy resurslar darajasini oshishiga olib keladi.

Korxona joriy aktivlarini boshqarishni oóz navbatida korxonaning aylanma mablagólarini boshqarish deb aytib oótsak ham boóladi. Korxonaning aylanma mablagólari tarkibiga, uning mulkchilik shakli, xoójalik-moliyaviy faoliyatining turi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir qancha elementlar kiritiladi.

Korxona aylanma aktivlarini quyidagi xususiyatlariga koóra tasniflashimiz mumkin:

1. Aylanma mablagólarning turlarga ajratilishiga koóra:

- xomashyo, material va yarim tayyor mahsulot zaxiralari;
- tayyor mahsulot;
- debitorlik qarzlari;

- pul mablagʻlari;
- boshqa turdagi aylanma mablagʻlar.

2. Joriy faoliyatda yoki ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga koʻra:

- ishlab chiqarish sikli jarayonida qatnashuvchi aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot zaxiralari va boshqalar);
- korxonalarning moliyaviy siklida qatnashuvchi aylanma aktivlar (debitorlik qarzlari, pul mablagʻlari va boshqalar).

3. Aylanma mablagʻlarning tarkibida ishtirok etish (funksionirovaniya) muddatiga koʻra:

- aylanma aktivlarning oʻzgaruvchan tarkibi, yaʼni buning tarkibiga mavsumiy xarakterga ega boʻlgan mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi aktivlar tushuniladi, ushbu turdagi aylanma aktivlar mahsulot ishlab chiqarish hajmining oʻzgarishiga mos ravishda oʻzgarib boradi;
- aylanma aktivlarning doimiy tarkibi, yaʼni ishlab chiqarish hajmining oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillarga bogʻliq boʻlmagan, aktivlarning bir qismi.

4. Aylanma aktivlarning shakllanish manbalariga koʻra:

- yalpi aylanma aktivlar;
- sof aylanma aktivlar;
- oʻz aylanma aktivlari.

Aylanma aktivlarni boshqarishning eʼtiborli jihati shundaki, ushbu jarayonda moliyaviy menejer kompaniyalarning ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion sikl xususiyatlari, ular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqliklarni toʻgʻri va mukammal mushohada qilishidadir. Bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, firma va kompaniyalarning aylanma aktivlarning doiraviy aylanishi yoki yuqoridagi turli bosqich sikllari, kompaniyalarning dastlabki xomashyo mahsulotini sotib olgan davrdan to tayyor mahsulotning realizatsiyasidan pul mablagʻlarini kelib tushishigacha boʻlgan barcha oraliq davriy jarayonlarni oʻz

ichiga oladi. Kompaniyalar aylanma aktivlarini doiraviy aylanishini quyidagicha ifodalash mumkin (2.1.1-chizma).

Kompaniyalarda aylanma aktivlarni boshqarish deyilganda, aylanma aktivlarni doiraviy aylanishining barcha bosqichlari yoki sikllaridagi jarayonlarni boshqarishni tushunish mumkin. Aylanma aktivlarni boshqarish nuqtai nazaridan ishlab chiqarish, moliyaviy va operatsion sikllarning mohiyati, ularning aylanma aktivlarni doiraviy aylanish jarayonida aynan qaysi bosqichida ishtirok etishi, ularning oóźaro bogóliqliklari kabi savollarga oydinlik kiritib olish lozim.




2.1.1-chizma Kompaniyalar aylanma aktivlarini doiraviy aylanishini[7]

Korxonalarning ishlab chiqarish sikli, mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yoki bevosita ushbu jarayonda foydalaniladigan aylanma aktivlarning toóliq aylanishini, xomashyo, material va yarim tayyor mahsulotlarni korxonaga kelib tushgan davrdan boshlab, ularni tayyor mahsulot holatiga keltirishgacha boólgan davrni ifodalaydi. Korxonada ishlab chiqarish siklining davomiyligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$ITs = AD\ (xz) + AD\ (tich) + AD\ (tm)$$

bu yerda:

[7] Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan ishlangan

ITs ï korxonalarda ishlab chiqarish siklining davomiyligi (prodoljitelnost), kun hisobida;

AD(xz) ï xomashyo va material zaxiralarining aylanish davri, kun hisobida;

AD(tich) ï tugallanmagan ishlab chiqarishning aylanish davri, kun hisobida;

AD (tm) ï tayyor mahsulotlarning aylanish davri, kun hisobida.

Moliyaviy sikl ï bunda mahsulot yetkazib beruvchilarga olingan xomashyo, materiallar va boshqa turdagi aktivlar uchun toólovlar amalga oshirilgan davrdan boshlab, realizatsiya qilingan yoki yuklab joónatilgan tovar, mahsulotlar uchun pul mablagólarini kelib tushishgacha boólgan davr tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda moliyaviy sikl, korxonalarning pul mablagólarini toóliq aylanish davrini xarakterlaydi, bu jarayon korxonalar tomonidan kreditorlik qarzlarni toólash davridan boshlab debitorlik qarzlarini undirib olingan davrni oóz ichiga oladi hamda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

**MTs= ITs+ AD (dq) ï AD (kq)**

bu yerda:

MTs ï korxonalarda moliyaviy siklning (pulni aylanish sikli) davomiyligi, kun hisobida

ITs ï korxonalarda ishlab chiqarish siklining davomiyligi, kun hisobida;

AD(dq) ï debitorlik qarzlarini oórtacha aylanish davri, kun hisobida;

AD (kq) ï kreditorlik qarzlarini oórtacha aylanish davri, kun hisobida.

Operatsion sikl ï korxonalarda aylanma aktivlarning umumiy summasini toóliq aylanish davrini tavsiflaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

**OTs= ITs+ AD (dq)**

bu yerda:

OTs ï korxonalarda operatsion siklning davomiyligi, kun hisobida;

AD(dq) ï debitorlik qarzlarini aylanish davomiyligi, kun hisobida.

Korxonalarda operatsion sikl bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun unga zaruriy xomashyo, material va boshqa turdagi foydalaniladigan aktivlarni

sotib olingan kundan boshlab uni realizatsiyasidan pul mablagʻlarni real kelib tushish oraligʻidagi davrni va jarayonlarni oʻz ichiga oladi.

Yuqoridagi keltirilgan formulalardan shu narsani aytish mumkinki, korxonalarda moliyaviy va operatsion sikllarning qisqartirilishi, moliyaviy resurslarni boshqarishning ijobiy tendensiyalar bilan rivojlanishini taʼminlovchi muhim omillardan biri sanaladi hamda ushbu natijalarga erishishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish, (bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirish);
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni omborlarda uzoq saqlanib qolishini oldini olish, marketing siyosatini toʻgʻri tashkil qilgan holda mahsulotlarni isteʼmolchilarga sifatli va oʻz vaqtida yetib borishini taʼminlash;
- debitorlik qarzlarini aylanish davrini tezlashtirish, yaʼni realizatsiya qilingan mahsulot va xizmatlar uchun pul mablagʻlarini oʻz vaqtida va toʻliq kelib tushishini taʼminlash va buning hisobiga ishlab chiqarish jarayonini yanada takomillashtirish;
- kreditorlik qarzlarini aylanishini sekinlashtirish, moliyaviy menejer tomonidan bu turdagi ishlarni amalga oshirishda yanada koʻproq masʼuliyat bilan harakat qilishni talab qiladi, chunki kreditorlik qarzlari koʻrsatkichlarini yuqori boʻlib ketishi korxonaning moliyaviy natijalariga va barqarorlik holatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Aylanma aktivlarni boshqarish siyosati korxonalar moliyaviy strategiyasining muhim qismi sanalib, bu siyosatning asosiy maqsadi korxonalarda yetarli miqdorda aylanma aktivlarni hajmi va tarkibini shakllantirish, hamda ularni moliyalashtirish manbalari tizimini optimallashtirishdan iborat.

Korxonalarda aylanma aktivlarni boshqarish siyosati quyidagi tartibda (ketma-ketlikda) amalga oshiriladi.

1. Korxona aylanma aktivlarining tahlili. Bu jarayonda aylanma aktivlarning barcha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning avvalgi yillarga nisbatan

oósish darajalari, tarkibiy oózgarishlari, rentabellik koórsatkichlari va shu kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

2. Aylanma aktivlarni tashkil qilish yoki shakllantirishni eng maqbul turini tanlash.

Korxonalarda aylanma aktivlarni tashkil qilishni uch xil yondashuvi mavjud boólib, ular quyidagilardan iborat:

- konservativ yondashuv, korxonalarda aylanma aktivlarni tashkil qilishning bu turdagi yondashuvida, korxonalar joriy faoliyatini normal amalga oshirilishini taôminlovchi aylanma aktivlarning miqdori belgilanadi va koózda tutilmagan holatlar uchun koóp miqdorda zaxiralar tashkil qilinadi;

- oórtamiyona yondashuv, bunda, korxonalarning joriy faoliyatida aylanma aktivlarga boólgan talabi taôminlanadi va koózda tutilmagan holatlar uchun normal miqdorda zaxiralar tashkil qilinadi;

- agressiv yondashuv, bunda, korxonalarning joriy faoliyatni toóxtovsiz amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirib borish uchun, aylanma aktivlarning yetarli miqdori belgilanadi va koózda tutilmagan holatlar uchun minimal darajada zaxiralar tashkil qilinadi.

2.1.1-rasmda ñUrganch yogô-moyò AJ da aktivlarning 2012-2015- yillar boóyicha dinamikasi[8]




---

[8] ñUrganch yogô-moyò AJ maôlumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yuqoridagi 2.1.1-rasmda ñUrganch yogô-moyò AJ da aktivlarning 2012-2015-yillar boôyicha dinamikasi keltirilgan. Unga asosan jamiyatda tovar moddiy zaxiralari 2013- yilda eng koôp boôlgan davr hisoblanadi.

3. Aylanma aktivlarning miqdorini optimallashtirish.

4.Korxonalar moliyaviy barqarorligini takomillashtirish, toôlov qobiliyatini mustahkamlash maqsadida, aylanma aktivlarning likvidlilik darajalarini shunga mos holda oshirib borishni taôminlash.

5. Korxonalarda belgilangan rivojlantirish dasturlarning ijrosini amalga oshirish uchun zarur boôladigan miqdorda, aktivlardan foydalanishning rentabellik darajasini taôminlash.

6. Aylanma aktivlardan foydalanish jarayonida ularning yoôqotilishi yoki shikast yetishi kabi holatlar yuz berishini minimallashtirish va oldini olish uchun sharoitlar yaratish.

**7.** Aylanma aktivlarni moliyalashtirish manbalarini optimal tizimini shakllantirish**.**

Kompaniyalarda ayrim turdagi aylanma aktivlardan foydalanish, maôlum bir xususiyatlarga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda kompaniyalar ushbu turdagi asosiy aylanma aktivlardan foydalanishda aniq bir chora-tadbirlar dasturi yoki tegishli tarzda aylanma aktivlardan foydalanish siyosatini ishlab chiqadilar, ushbu turdagi aylanma aktivlarga misol qilib quyidagilarni koôrsatish mumkin:

a) tovar moddiy zaxiralari;

b) debitorlik qarzlari;

v) pul mablagôlari.

**Tovar moddiy zaxiralarni boshqarish**. Tovar moddiy zaxiralarni boshqarish siyosati, kompaniyalarda aylanma aktivlarni boshqarish siyosatining muhim qismi sanaladi. Tovar moddiy zaxiralarini boshqarish deyilganda korxonalarda ishlab chiqarish yoki xizmat koôrsatish jarayonini oôz vaqtida amalga oshirish maqsadida zaruriy zaxiralar bilan taôminlash tushuniladi. Korxonalarda tovar moddiy zaxiralarining tarkibi va nomenklaturasi ularni

xoójalik faoliyatining turlari, yoónalishi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi. Savdo va vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarda zaxiralar asosan, savdo tarmoqlarida realizatsiya qilish uchun moóljallangan tayyor mahsulotlar koórinishida boólsa, ishlab chiqarish faoliyati bilan shugóullanuvchi korxonalarda esa zaxiralar quyidagicha boóladi:

a) xomashyo va materiallar (tovar moddiy zaxiralari);

b) tugallanmagan ishlab chiqarish;

d) ombordagi tayyor mahsulotlar.

Tovar moddiy zaxiralarini boshqarishdan maqsad - kerakli miqdorda va belgilangan muddatda mahsulotlar ishlab chiqarish, ushbu jarayonni uzluksizligini taôminlash va buning asosida zaxiralarni saqlash boóyicha qilinadigan xarajatlarni minimallashtirish va mahsulotlarni toóliq realizatsiya qilishga erishish.

Tovar moddiy zaxiralarni samarali boshqarish bevosita korxonalarda ushbu turdagi aylanma aktivlarni boshqarish siyosatini nechogólik toógóri va oqilona ishlab chiqilganligiga bogóliqdir. Tovar moddiy zaxiralarning yillar boôyicha oôzgarishini ñUrganch yogô-moyò AJ[9]da koôrishimiz mumkin.(2.1.3-rasm)

2.1.3-rasm ñUrganch yogô-moyò AJda tovar moddiy zaxiralarning yillar boôyicha oôzgarishi




9 ñUrganch yogô-moyò AJ maôlumotlari asosida muallif ishlanmasi

Korxonalarda tovar moddiy zaxiralarini boshqarish siyosatini ishlab chiqish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1**. Oʻtgan davr mobaynida shakllangan tovar moddiy zaxiralarining tahlili**. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad, korxonaning ishlab chiqarish yoki tadbirkorlik faoliyatini kerakli zaxiralar bilan taʼminlanganlik darajasini aniqlash va ulardan foydalanish samaradorligini baholashdir. Tahlil jarayonida tovar moddiy zaxiralarining umumiy summasi, uning oʻzgarish dinamikasi, tovar moddiy zaxiralarining aylanma aktivlarining hajmidagi ulushi koʻrib chiqiladi. Keyingi bosqichda esa, zaxiralarning tarkibi va tuzilishi, mavsumiy tebranishlar va aylanma aktivlarning miqdori, hamda ulardan foydalanish samaradorligi va alohida turdagi zaxiralarni saqlash boʻyicha qilingan xarajatlarning miqdori oʻrganiladi.

2. Korxonalarda zaxiralarni aniq maqsadga koʻra shakllantirish. Bunda korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning turlari va yoʻnalishlaridan kelib chiqqan holda zaxiralarni shakllantirish inobatga olinadi, yaʼni korxona ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradigan boʻlsa, u holda ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan zaxiralar tashkil qilinadi yoki korxona mahsulotlar realizatsiya qilish yoki sotish faoliyati bilan shugʻullanadigan boʻlsa, zaxiralar ushbu faoliyatni amalga oshirish bilan bogʻliq holda shakllantiriladi.

3. Korxonalarda asosiy turdagi zaxiralarning hajmi yoki miqdorini optimallashtirish, yaʼni korxonalarda ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulot zaxiralarining kerakli miqdorda mavjudligini taʼminlash. Korxonalarda tovar moddiy zaxiralarini boshqarish siyosatining keyingi bosqichida korxona moliyaviy rahbarlari va moliyaviy menejerlari birgalikda, xoʻjalik faoliyatini normal yoʻlga qoʻyish uchun talab qilinadigan darajada zaxiralar miqdorini aniqlashlari hamda quyidagi savollarga yechim topishliklari lozim boʻladi:

a) ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun minimal darajadagi zaxiralar hajmi qancha boʻlishi kerak;

b) kelgusida zaxiralarga buyurtmani qachon berish kerak boʻladi;

v) buyurtma qilinayotgan zaxiralarning optimal hajmi qancha boʻlishi kerak;
g) zaxiralarni olib kelish, ularni joylashtirish va saqlash boʻyicha qilinadigan xarajatlar summasi qanchani tashkil qiladi.
Xalqaro amaliyotda moliyaviy menejerlar tomonidan bu turdagi savollarga javob topishda va tovar moddiy zaxiralarni samarali boshqarishda turli modellardan foydalaniladi.
4. Korxonalarda tovar moddiy zaxiralar harakatini nazorat qilishning samarali tizimini yaratish. Bunda asosiy vazifa korxonalar tomonidan zaxiralarni toʻldirish maqsadida buyurtmalarni oʻz vaqtida olib kelish va joylashtirish boʻyicha, amalga oshiriladigan barcha vazifalarni toʻgʻri tashkil qilish hisoblanadi.

## 2.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda pul mablagʻlari holati tahlili.

Korxonalarda pul oqimlarini boshqarish moliyaviy menejment tizimining muxim tarkibiy kismi hisoblanadi. U subyektning moliyaviy boshqaruvida turli shakldagi vazifalarni yechishda va uning subyekt moliyaviy menejmentining bosh maqsadiga qaratilganligini talab etadi.

Korxonalarda pul oqimlarini boshqarish jarayoni quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tamoyillarning moliyaviy menejerlari tomonidan toʻliq amalga oshirilishi korxona moliyaviy barqarorligini taʻminlaydi.

*1. Axborotlarning ishonchliligi tamoyili.* Har qanday boshqariladigan tizim, shuningdek, subyekt pul oqimlarini boshqarishda xam zaruriy axborot bazasi bilan taʻminlanishi kerak boʻladi. Bunday axborot bazalariga ega boʻlish oʻz-oʻzidan maʻlum qiyinchiliklarni hal qilishni talab etadi. Ayniqsa, moliyaviy hisobotlar tuzish va ulardan foydalanishda yagona buxgalteriya hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etishni shakllanitirish va boshqalar bu tamoyilga tayanilishini yaqqol koʻrsatadi.

*2. Balanslashtirilishi tamoyili (tushumlar va pul mablaglari sarflanishi muvofiqlashtirish).* Subyektlar pul oqimlarini boshqarish koʻproq uning tarkibiy

guruhlanishidagi asosiy shakllar bilan uzviy bogliq boʻlib, bu jarayonlarni bir-biriga maʼlumotlarning mosligi va turli shakldaligi bilan aloxida ajralib turadi. Ushbu tamoyil subyekt pul oqimlarini asosiy shakllari, xajmi, vaqt oraligi va boshqa xususiyatlariga qarab muvozanatlashtirishni talab etadi. Subyektning pul oqimlarini boshqarish jarayonlarida pul oqimi va undan foydalanishni maqbullashtirilishini koʻzda tutadi.

3. *Samaradorlikni taʼminlash tamoyili.* Subyekt pul oqimlarini boshqarishda maʼlum bir vaqtda pul mablaglarining tushumini va sarflanishining bir meʼyordaligini, boʻsh turgan pul mablaglarining aktivligini oshirish, inflyasiya darajasini pasaytirish, muayyan vaqtdagi qiymat bahosini samarali tashkil etishga qaratiladi. Bu tamoyilga subyekt moliyaviy investisiyalarini harakatlantirish yoʻli bilan pul oqimlarini samarali boshqarish va boshqalar kiradi.

4. *Likvidlikni taʼminlash tamoyili.* Subyekt pul oqimlarining aloxida shakllari bo`yicha yuqori darajadagi maromsizlik yuzaga kelishi natijasida vaqtincha pul defitsiti paydo boʻlib, uning likvidlik darajasiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun subyekt pul oqimlarini boshqarishning davrlarida bu oqimlar likvidliligini yetarli darajada taʼminlash zarur.

Pul mablaglari rejasini tuzishda moliyaviy hisobot moddalaridan foydalanib, subyekt toʻgrisida atroflicha maʼlumot olinadi, shu asosda korxonada pul mablaglarining tushumi va sarflanishi, shuningdek, moliyaviy xolat, pul mablaglarining harakatining faollik darajasi tahlil etiladi.

«Pul oqimlari toʻgrisida hisobot»da subyektning moliyaviy resurslari tarkibidagi oʻzgarishlar va pul mablaglarining xarakati, xususan, joriy xoʻjalik faoliyati jarayonida bu mablaglarning kelib tushishi, sarflanishi, yil boshi va oxiridagi qoldigi, shuningdek, investisiya va moliyaviy faoliyatga yoʻnaltirilgan qismi aks ettiriladi.

Pul oqimlarini boshqarishda moliyaviy axborotlar bilan ishlash jarayonidagi eng muxim jixatlaridan biri subyekt faoliyati, xususan, uning xoʻjalik faoliyati xaqida aloxida xulosalar chiqarish uchun zarur boʻladigan qator koʻrsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonalar boshqaruv siyosatida pul oqimlarnini boshqarish masalasi aloxida o‘rin egallaydi. Ushbu boshqaruv siyosatining to‘g‘ri ishlab chiqilgani va uni samarali amalga oshirish muxim axamiyat kasb etadi. Buni quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin




2.2.1-rasm. Korxonalarda pul oqimlarini boshqarish bosqichlari.

Ushbu 2.2.1-rasmdan korxonalarda pul mablaglarini boshqarish bosqichlarini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu rasmda tasvirlangan ma‘lumotlarga muvofiq korxona avvalambor pul mablaglarini boshqarish siyosati ishlab chiqariladi. Korxonalarda pul mablaglaridan samarali foydalanish maqsadida pul mablaglarini boshqarish siyosati ishlab chiqiladi. Ya‘ni pul mablaglaridan foydalanishda korxona istiqbolini belgilovchi chora tadbirlar ishlab chiqiladi. Umumiy ma‘noda bunda korxona moliyaviy menejerlari yoki rahbari tomonidan pul mablaglaridan foydalanish strategiyasi xamda uni amalga oshirish taktikalari ishlab chiqiladi. Shundagina korxona ko‘zlagan maqsadiga belgilangan rejalar asosida yaqilashadi xamda erishadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada pul mablaglari bo‘lgan minimal ehtiyojini aniqlashi lozim. Chunki mavjud pul mablaglaridan korxona samarali foydalanishga xarakat qiladi. Shuning uchun korxona asosiy faoliyatini amalga oshirish uchun, ya‘ni maxsulot ishlab chiqarish

uchun qancha mablag kerak boʻlsa, asosiy faoliyatga shuncha mablagni qoldirish lozim. Qolgan qismini samarali foydalanish maqsadida boshqa soxalarga sarflash maqsadga muvofiqdir. Bugungi tez oʻzgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablaglari boʻsh turmasligi lozim. Aks xolatlarda bu mablaglar besamar ishlatilib ketishi mumkin.

**Pul harakati toʻgʻrisidagi hisobot** subyektning operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyatining oʻz pul mablagʻlariga maʼlum hisobot davri ichida tasirini aks ettiradi, shu davr ichida pul mablagʻlarining oʻzgarishini tushuntiradi. Pul oqimlari toʻgʻrisidagi maʼlumotni qoʻllash quyidagilarni aniqlashga yordam beradi:

Å korxonaning pul mablagʻlarini va ularning ekvivalentlarini ishlab topish qobiliyatini va tashkilotning shu kabi pul oqimlarini ishlatishga extiyojini aniqlash;

Å tashkilotning sof aktivlaridagi oʻzgarishlar, uning moliyaviy tuzilishini (uning likvidligini va toʻlov qobiliyati bilan birga) va uning oʻzgarib turgan sharoit va imkoniyatlarga moslashish uchun oʻz vaqtida pul miqdoriga va pul oqimlariga taʼsir etish qobiliyatini aniqlash;

Å har xil tashkilotlarning operatsion faoliyatlarini taqqoslash, chunki bu ayni operatsion va xoʻjalik faoliyatining hodisalari uchun har xil hisoblash usullarini qoʻllanishni inkor etadi.

**Hisobotda yoritiladigan faoliyat turlari:**

**Operatsion faoliyati** - yuridik shaxsning daromad olish yuzasidan asosiy faoliyat va investitsiya va moliyaviy faoliyatga mansub boʻlmagan boshqa faoliyatidir.

Operatsion faoliyatidan pul oqimlarining hajmi tashkilotning ssudalarni toʻlash uchun etarli pul mablagʻlarini yigʻish, ishlab chiqarish darajasini saqlash, dividendlarni toʻlash va tashqi moliyalashtirish manbalarni jalb qilmay yangi kapital qoʻyilmalarni amalga oshirish ishlarini qila olishining asosiy koʻrsatkichi hisoblanadi. **Investitsiya faoliyati** - bu pul ekvivalentlariga

kirmaydigan uzoq muddatli aktivlarni va boshka investitsiyalarni sotib olish va sotish, toʻlanadigan kreditlarning berilishi va olinishi.

**Moliyaviy faoliyat** - bu faoliyat natijasida tashkilotning xususiy kapitalining va qarzlarining hajmida va tuzilishida oʻzgarishlar sodir boʻladi.

**Investitsiya va moliyaviy faoliyat bilan bogʻliq pulsiz muomalalar**

Faqat asosiy vositalarga, uzoq muddatli kreditlarga yoki aksiyadorlik kapitaliga tegishli boʻlgan investitsiya va moliyaviy tavsifdagi pulsiz muomalalarga uzoq muddatli kreditlar hisobiga asosiy vositalarni sotib olish, oddiy aksiyalarni obligatsiyalarga konvertatsiyalash va boshqalar kiradi. Ular pul harakati toʻgʻrisidagi Hisobotda aks ettirilmasligi ham mumkin edi, chunki kompaniyaning pul mablagʻlariga oʻz taʼsirini koʻrsatmaydi. Ammo, pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobotning maksadlaridan biri - investitsiya va moliyaviy faoliyatni aks ettirish boʻlganligi uchun va shu kabi muomalalar kompaniyaning pul mablagʻlarining holatiga kelgusida taʼsir koʻrsatgani uchun, bu muomalalar pul mablagʻlarining harakati toʻgʻrisidagi hisobotda aks ettirilishi kerak, buning uchun hisobotga «Investitsiya va moliyaviy tavsifdagi pulsiz muomalalarning ruyxati» deb nomlangan maxsus boʻlimi kiritilgan.

| Pul mablagʻlarining oqib kelishi | Pul mablagʻlarining oqib ketishi |
|---|---|
| Mahsulot, tovar va xizmatni sotishdan | Tovar va xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga toʻlovlar |
| Royaltilardan (patent, avtorlik huquqidan foydalanganlik uchun toʻlovlar va boshq.), turli tavsifdagi taqdirlashlar, foiz daromadidan, komission yigʻimlardan va boshqa daromadlardan | Korxona xodimlariga pullik toʻlovlar, operatsion xarajatlar |
| Tovar-moddiy zahiralarning kamayishi | Tovar-moddiy zahiralarning koʻpayishi |
| Savdo va vositachilik maksadlarida tuziladigan bitimlar boʻyicha pullarning kelib tushishi | Toʻlangan foizlar |
| Joriy majburiyatlarining koʻpayishi, jumladan investitsiya va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromad soligʻi boʻyicha | Joriy majburiyatlarining kamayishi, jumladan investitsiya va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromadga soliq boʻyicha |
| Pulsiz xarajatlar:<br>a) asosiy vositalarning va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, tabiiy resurslarining kamayishi<br>b) qarzlarga oid qimmatli kogʻozlar boʻyicha chegirmalarining amortizatsiyasi | Pulsiz muomalalari:<br>a) qarzlarga oid qimmatli qogʻozlar boʻyicha ustamaning amortizatsiyasi |

**Investitsiya va moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobot.** Subyektlar pul oqimlari netto-asosida (subyektning naqd pulning tushum va toʻlovi orasidagi farq) aks ettirilgan hodisalardan tashqari, investitsiya va moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan asosiy yalpi tushumlar va pul mablagʻlarining yalpi toʻlovlari boʻyicha alohida hisobot beradilar.

**Netto-asosda pul mablagʻlarini harakati toʻgʻrisidagi hisobot**

Netto-asosda pul mablagʻlarining harakati toʻgʻrisidagi hisobot quyidagicha taqdim etilishi mumkin:

(a) Pul kirimlari va mijozlar nomidan toʻlovlar, bunda pul mablagʻlari subyekt faoliyatidan koʻra koʻproq mijozning faoliyatini aks ettiradi (pul mablagʻlarini qabul qilish va talab qilib olinadigan bank depozitlarini toʻlash; mijozlarni topshirigʻi boʻyicha investitsiya faoliyati bilan shugʻullanadigan

subyektlar tomonidan ushlab turgan jamgʻarmalar; mulkdorlar nomidan undiriladigan va ularga toʻlanadigan ijara toʻlovlari);

(b) tez aylanishi, katta miqdordagi summalar va yaqin boʻlgan toʻlov muddatiga ega moddalar boʻyicha pul kirimlari va toʻlovlari (avvaldan toʻlovlar va kredit varaqachalari boʻyicha mijozlarni asosiy qarzdorliklari uchun toʻlovlari; investitsiyalarni olish va sotish; toʻlov muddati uch oydan oshmagan boshqa qisqa muddatli qarzlar).

Pul mablagʻlari harakati moliyaviy muassasalar faoliyatini quyidagi turlari netto-asosda aks ettirilishi kerak:

(a) belgilangan muddatda qoplanadigan olingan va toʻlangan depozitlar boʻyicha pul kirimlari va toʻlovlari;

(b) boshqa moliyaviy muassasalardan depozitlarni joylashtirish va olib qoʻyish;

(v) mijozlarga pullik boʻnaklar va ssudalar hamda ularni mijozlar tomonidan toʻlanishi.

**Pul mablagʻlarining chet el valyutasidagi harakati**

Chet el valyutasi muomalalaridan kelib chiqadigan pul oqimlari muomala amalga oshirilgan sanada Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Banki kursi boʻyicha milliy valyutada koʻrsatilishi kerak.

Valyutalarning kursi oʻzgarishlardan kelib chiqadigan realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar pul oqimlariga kirmaydi(2.2.1-ilovaga qarang).

Korxonalar ishlab chiqarish jarayonida maʼlum bir davrda (bir ishlab chiqarish sikli davomda) korxonada pul mablaglari qoldigini aniqlab borish lozim. Bu asosan korxonada pul oqimlari toʻgrisidagi hisobotda amalga oshiriladi. Faqatgina moliyaviy menejerlar tomonidan pul mablaglari chiqimi va uning kirimi tahlil qilinib keyingi davrda kerakli pul mablaglari xajmini aniqlash lozim. Bundan tashqari xar bir davrdagi aniqlangan pul mablaglari diapazoni korxonada korxona faoliyatining qay darajada ekanligini belgilaydi.

Korxona bir ishlab chiqarish sikli nixoyasida pul mablaglari xolatini tahlil qilib, uning oʻsish dinamikasini aniqlagandan soʻng keyingi ishlab chiqarishga qancha pul mablaglari kerak boʻlsa, shuncha pul mablaglarini qoldirib, pul

mablaglari oqimini shunga toǒgirlab borish lozim. Qolgan qismini ajratib borish lozim. Bu mablaglardan korxona zaxiraga olishi yoki yuqorida taǒkidlaganimizdek boshqa soxaga safarbar etishi mumkin.

Korxonada pul mablaglari xolatini tahlil qilishda hamda undan yanada samarali foydalanish choralari koǒrilayotgan bir paytda, pul mablaglarining aylanuvchanligi darajasiga katta eǒtibor qaratish lozim. Pul mablaglari qancha tez aylansa, yuqorida taǒkidlaganimizdek korxonaning keyingi ishlab chiqarishiga qoldirgan pul mablaglari summasi xam ortiqchalik qiladi. Yaǒni pul mablaglari aylanuvchanligi yuqori boǒlgan faoliyatda pul mablaglariga boǒlgan extiyoj odatiy xolatlarga qaraganda ancha kam boǒladi.

Korxona ishlab chiqarish uchun pul mablaglariga boǒlgan minimal extiyojni aniqlaganda, xar bir ishlab chiqarish sikli davomida pul mablaglari qoldigining tebranish diapazoni aniqlanganda xamda pul mablaglarining aylanuvchanlik darajasi oshirilganda maǒlum bir pul mablaglari ortib qolar ekan. Bunda keyingi masala bu mablaglardan yanada samarali foydalanish turadi. Korxonada mavjud xar bir mablaglarning rentabelligini taǒminlash maqsadga muvofiq boǒladi.

Korxonalarda pul mablaglari aylanishi shunday boǒlishi kerakki, bunda xar bir xarajatni qoplash uchun daromadlar oǒz vaqtida boǒlishi lozim. Yaǒni bunda ishlab chiqarilgan maxsulotni oǒz vaqtida realizasiya qilib, tushumni oǒz vaqtida tushishini taǒminlash lozim. Misol uchun korxonada maxsulot ishlab chiqarish sifati ishchi va xodimlarning ishlash sifatiga boglik. Maǒlumki ularning ishlash sifati oǒz vaqtida mehnat haqilarini olishi va turli ragbatlantirishlar olishiga bogliq. Demak, bunda ish haqi summalarini oǒz vaqtida olishi korxona taraqqiyotida muxim axamiyat kasb etar ekan.

Korxona faoliyatida soliqdarning oǒrni xam aloxida axamiyat kasb etadi. Soliqdar oǒz vaqtida toǒlanmasligi korxona uchun qoǒshimcha peniya va jarimalar toǒlashga majbur boǒladi. Shuning uchun koǒp xolatlarda soliqdar toǒlov muddati kelgunga qadar davlat budjetiga oǒtkazilib beriladi. Shuning uchun pul mablaglarini boshqarishda xamda pul fondlaridan samarali foydalanish maqsadida pul oqimlari xarakatini soliq toǒlovlari muddatlariga toǒgirlash dolzarb

masalalardan biri sanaladi. Chunki korxonalar realizasiya qilgan mahsulotlari summasi oöz vaqtida tushmasligi natijasida, debitorlik qarzlarini shakllantirib, solik tulovlarini uz vaqtida amalga oshira olmay koladilar. Bu esa korxona uchun ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Ayrim xolatlarda korxona hisoblangan soliq summasini vaqtinchalik toölamay turish natijasida mavjud summadan samarali foydalanish mumkin. Yaöni bunda korxona oldidagi asosiy masala soliq summasini vaqtinchalik toölamasdan, uni ishlab chiqarishga sarflashdan qancha foyda koörishi bilan soliqni vaqtida toölamaganligi uchun toölanadigan peniya orasidagi farq tahlil qilinishi lozim. Natija ijobiy boölsa bundan foydalanish maqsadga muvofiq keladi, aks xolatda esa korxona soliqlarni oöz vaqtida toölagani maöquldir.

2.2.1-jadval

*ñUrganch yogô-moyò Aksioner jamiyatning 2013 yilda pul mablaglari harakati* tahlili[10]

| Koörsatkichlar | Kirim | | Chiqim | |
|---|---|---|---|---|
| | ming so'mda | Foizda | ming so'mda | Foizda |
| Pul mablag'larining yil boshiga qoldig'i | 271 892 | 0,36 | - | - |
| Asosiy faoliyat | 71 340 659 | 94,63 | 43 038 945 | 57,61 |
| Investitsion faoliyat | - | - | - | - |
| Moliyaviy faoliyat | 3 777 368 | 5,01 | 11 829 810 | 15,83 |
| To'langan soliqlar | | | 19 844 033 | 26,56 |
| Jamipul mablag'-larining harakati | 75 389 919 | 100 | 74 710 778 | 100 |
| Sof ko'payish yoki kamayish | 679 141 | 0,90 | - | - |

Yuqoridagi 2.2.1-jadvalda *ñUrganch yogô-moyò Aksioner jamiyatning* pul oqimlari taxlili keltirilgan. Ushyuu jadvalda pul oqimlari kirimi va pul oqimlari chiqimi haqida maölumotlar keltirilgan. Ushbu jadval maölumotlariga koöra korxonada yil boshida pul mablaglari qoldigi 271 892 ming soömni tashkil etgan boölib, ushbu summa ushbu yildagi jami pul mablaglari aylanmasining 0,36 %ini

[10] "Urganch yog'-moy" AJ materiallari asosida muallif ishlanmasi

tashkil etgan. Asosiy faoliyatdan pul mablaglari kirimi 71 340 659 ming soʻm boʻlib jami pul mablaglari kirimining 94,63 %ini tashkil etadi. Asosiy faoliyatda pul mablaglari chiqimi 43 038 945 ming soʻmni tashkil etib, ushbu summa jami pul mablaglari chiqimining 57,61 %ini tashkil etgan. Korxonada ushbu yilda investitsion faoliyatdan pul oqimlari harakati boʻlmagan. Korxonaning moliyaviy faoliyatdan pul mablaglari kirimi 3 777 368 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlib, ushbu summa jami pul mablaglari kirimining 5,01%ini tashkil etadi. Moliyaviy faolitdan pul mablaglari chiqimi esa 11 829 810 ming soʻmni tashkil etib, ushbu summa korxonada jami pul mablaglari chiqimining 15,83%ini tashkil etgan. Korxonada 2013 yil yakunida sof koʻpayish jami pul mablaglari xarakatining 0.36% dan 0,90 % punktga oshishini ijobiy baholashimiz mumkin va ushbu holatda korxonada inkiroz xolati mavjud emasligiga ishonch xosil qilishimiz mumkin.

Korxonalarda pul mablaglarini boshqarishda asosiy vazifa pul mablaglari aylanuvchanligini maksimallashtirish hisoblanadi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida xam eng asosiy masala pul mablaglari miqdorini oshirish emas balki, pul mablaglari aylanuvchanligini oshirish hisoblanadi. Chunki pul mablaglari aylanuvchanligini oshirishning koʻp afzalliklari bor. Bularga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- korxonalar tovar ishlab chiqarishi xajmini oshirish;
- faoliyat xarajatlarini oʻz vaqtida amalga oshirish;
- ishlab chiqarish oz pul mablaglari bilan xam belgilangan maqsadga erisha olish;
- korxonani moliya-xoʻjalik faoliyati uzluksizligini taʻminlash;
- korxona moliyaviy xolatini yaxshilash.

Shunday qilib korxonalarda pul oqimlari xarakatini tezlashtirish pul mablaglarini tejab qolishga xamda tejalgan pul mablaglarini ishlab chiqarishni kengaytirishga yoki boshqa soxaga yoʻnaltirishi mumkin.

## 2.3. Korxonalarda moliyaviy barqarorlikni taôminlash yoónalishlari

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi va uning asosiy turlari Korxonalarning moliyaviy barqarorligi deganda uning faoliyatini moliyaviy jihatdan bir maromda, uzluksiz taôminlab turilishi tushuniladi. Moliyaviy jihatdan taôminlash faqatgina moliyaviy resurslar bilan taôminlash emas, balki uning juda koóp qirralari, tomonlari ham mavjudligini bildiradi. Chunki xoójalik faoliyatining uzluksiz sodir boólib turishi uchun birgina moliyaviy manbalar yetarli emas. Bu manbalarning taôminlanishi uchun boshqa moddiy, mehnat va shu kabi bir qancha manbalarning ham yetarli boólishi juda muhimdir. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni baholash uchun koórsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy barqarorlik ï bu korxonada daromadlarning xarajatlardan ustunligi va uning doimiy toólovga layoqatliligini kafolatlovchi aniq hisob-kitob holatini anglatadi. U quyidagi moliyaviy manbalarning oózaro bogóliqligida aks etadi, yaôni korxonada pul vositalaridan samarali foydalanish va ularni erkin boshqarish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishning toóxtovsiz amalga oshirilishidir. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, mahsulot tannarxini pasaytirish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlariga ichki talabni ragóbatlantirish hisobiga taôminlash boóyicha chora-tadbirlar majmuasini muntazam amalga oshirilishi jarayonidir. Moliyaviy jihatdan barqaror korxona deb biz quyidagi korxonaga aytishimiz mumkin, yaôni oóz mablagólari hisobidan aktivlarga yoónaltirilgan mablagólarini qoplay oladigan (asosiy fondlar, nomaterial aktivlar, aylanma vositalar), debitorlik va kreditorlik qarzdorlikka yoól qoóymaydigan va oóz majburiyatlarini oóz muddatida toólaydigan korxonalardir. Korxonalarda moliyaviy holat mutloq barqaror, moótadil barqaror, nobarqaror va inqirozli boólishi mumkin. Korxonalarning oóz vaqtida toólovni amalga oshirishi, keng miqiyosda oóz faoliyatini moliyalashtira olishi, koózda tutilmagan salbiy holatlarni engib oótishi va ijobiy

boʻlmagan vaziyatlarda oʻz toʻlov qobiliyatini ushlab qola olishi uning moliyaviy barqaror holatda ekanligidan dalolat beradi va aksincha. Agar toʻlovga layoqatlilik korxonalarning tashqi koʻrinishini aks ettirsa, moliyaviy barqarorlik esa korxonalarning pul va tovarlar oqimini, daromad va xarajatlarini, ularning shakllanish manbalarining oʻzaro muvozanatini aks ettiradi. Korxonalar barqaror moliyaviy holatga quyidagi vositalar taʼminlanganida, yaʼni oʻz kapitalining yetarlicha mavjudligi, aktivlarning yaxshi holatda boʻlishi, moliyaviy tavakkalchilikni hisobga olgan holda rentabellikning yetarli darajadaligi, moʻtadil daromad va qarz mablagʻlarini jalb qilishning keng imkoniyatlari mavjud boʻlgandagina erishishlari mumkin.

Ammo korxonalarning moliyaviy barqaroligini ifodalovchi koʻrsatkichlar xususida olimlar oʻrtasida turli qarashlar mavjud. Bu borada olimlar ikki guruhga boʻlingan. A.D. Sheremet, R.S. Sayfulin, G.V. Savitskaya, S.A. Akramov kabi olimlar korxonalarning moliyaviy barqarorligini ifodalash uchun bitta koʻrsatkichdan foydalanib, uning darajasi boʻyicha toʻrt xil xulosa chiqarishni tavsiya qilganlar. Bunday holatlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1) mutlaq moliyaviy barqarorlik;
2) moʻtadil moliyaviy barqarorlik;
3) nobarqaror moliyaviy holat, yaʼni korxonalarda iqtisodiy inqiroz xavfi kuchli boʻlgan vaziyat;
4) inqirozli moliyaviy holat, yaʼni korxonalarning bankrotlik holatiga tushib qolish vaziyati.

Moliyaviy barqarorlikning mutloq koʻrsatkichi korxonalarning zaxiralari holatini va iqtisodiy asosga ega boʻlgan manbalar bilan taʼminlanganlik darajasini tavsiflaydi. Zaxiralarni shakllanish manbasini tavsiflashda uchta asosiy koʻrsatkichdan foydalaniladi:

- oʻz aylanma mablagʻlarining mavjudligi (ortiqchaligi yoki etishmovchiligi);
- zaxira va xarajatlarni shakllanishida oʻz va uzoq muddatli qarz manbalarining mavjudligi (ortiqchaligi yoki etishmovchiligi);

- zaxira va xarajatlarni shakllanishida asosiy manbalarning umumiy hajmi.

Korxona zaxiralarini iqtisodiy asosga ega bo‘lgan manbalar bilan ta’minlanganligiga quyidagilar kiradi:

- o‘z aylanma mablag‘lari, noaylanma aktivlarga bog‘liq bo‘lmagan uzoq muddatli qarzlar va kreditlar, aylanma mablag‘larni vaqtinchalik to‘ldirish uchun qisqa muddatli kreditlar va qarzlar, mahsulot munosabatlari jarayoni bo‘yicha kredit qarzdorlik.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligiga chuqurroq baho berish o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatkichlari (koeffitsiyentlar tizimi)da yaqqol yuzaga chiqadi. Ularni quyidagi guruhlarga bo‘lgan holda o‘rganish mumkin:

- korxonalarning moliyaviy mustaqilligini ifodalovchi koeffitsiyentlar;
- aylanma mablag‘lar holatini tavsiflovchi koeffitsiyentlar;
- asosiy mablag‘lar holatini tavsiflovchi koeffitsiyentlar.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda likvidlilik va to‘lovga layoqatlilik tahlili ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini tavsiflashda likvidlilik va to‘lovga layoqatlilik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun 2-3 yillik hisobot ma’lumotlaridan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Korxonalar moliyaviy barqarorligining quyidagi turlari farqlanadi[11]:

1) mutlaq moliyaviy barqarorlik;
2) mo‘tadil moliyaviy barqarorlik;
3) nobarqaror moliyaviy holat;
4) inqirozli moliyaviy holat.

Birinchi – mutlaq moliyaviy barqarorlik (u quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi: S={1,1,1}). Ushbu moliyaviy barqarorlik turi quyidagicha tavsiflanadi, ya’ni korxonalarning barcha zaxiralari ularning o‘z aylanma mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Bunday vaziyatda korxonalarda tashqi kreditorlarga ehtiyoj sezilmaydi, to‘lovga qobiliyatsizlik va ularni kelib

---

11 B.Toshmurodova, O.Hamdamov Moliyaviy menejment Oquv qo‘llanma T.Moliya-iqtisod. 2012. 113-bet

chiqish sabablari yuzaga kelmaydi, ichki va tashqi moliyaviy intizomi buzilmaydi. Bu kabi jarayonlarni biz amaliyotda kam uchratamiz.

Moliyaviy barqarorlikning mutlaq moliyaviy barqarorlik turi korxonalarda zaxiralarni moliyalashtirishning barcha manbalari ortiqligini bildiradi:

1) æ oóz aylanma mablagólari Ó0;

2) æ zaxiralarni uzoqmuddatli moliyalashtirish manbalari Ó0;

3) æ zaxiralarni moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi Ó0.

Ikkinchi ï moótadil moliyaviy barqarorlik (u quyidagi koórinishda boóladi: S={0,1,1}). Ushbu vaziyatda korxona zaxiralarini qoplashda oóz aylanma mablagólari bilan birga uzoq muddatli jalb qilingan mablagólardan foydalangan holda qoplaydi. Ushbu zaxiralarni moliyalashtirish turi moliyaviy menejmentda «moótadil» hisoblanadi. Moótadil moliyaviy barqarorlik ayniqsa, barcha korxonalar uchun juda maôqul hisoblanadi.

**2.3.1-jadval. Moliyaviy barqarorlikning turli koôrinishlarida zaxira va xarajatlarning moliyalashtirish manbalari bilan taôminlanganlik darajasi**

| Moliyaviy barqarorlik turlari | Zaxira va xarajatlarning moliyalashtirish manbalari bilan taôminlanganlik koórsatkichlari | | |
|---|---|---|---|
| | æ oóz aylanma mablagólari | æ zaxiralarni uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari | æ zaxiralarni moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi |
| Mutlaq | Ó0 | Ó0 | Ó0 |
| Moótadil | Ò0 | Ó0 | Ó0 |
| Nobarqaror | Ò0 | Ò0 | Ó0 |
| Inqirozli | Ò0 | Ò0 | Ò0 |

Moótadil moliyaviy barqarorlik korxonalarning oóz aylanma mablagó-larining yetishmasligini, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining va shu bilan birga moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi koópligini tavsiflaydi:

1) æ oóz aylanma mablagólari Ò0;

2) æ zaxiralarni uzoqmuddatli moliyalashtirish manbalari Ó0;

3) æ zaxiralarni moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi Ó0.

Uchinchi ï nobarqaror moliyaviy holat (u quyidagi ko´rinishda bo´ladi: S={0,0,1}). Bunday vaziyatda korxonalarning to´lov qobiliyati buziladi, shu bilan birga o´z mablag´larini qoplash manbalari, kreditor qarzdorlikni qisqartirish, zaxiralarni aylanuvchanligini tezlashtirish hisobidan tenglikni tiklash imkoniyati saqlanib qolinadi.

Nobarqaror moliyaviy holat korxonalarning o´z aylanma mablag´lari va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining yetishmovchiligini, shu bilan birga moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi ortiqligini anglatadi:

1) æ o´z aylanma mablag´lari Ò0;

2) æ zaxiralarni uzoqmuddatli moliyalashtirish manbalari Ò0;

3) æ zaxiralarni moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi Ó0.

To´rtinchi ï inqirozli moliyaviy holat (u quyidagi ko´rinishda bo´ladi: S={0,0,0}). Ushbu vaziyatda korxonalar bankrotlik holatida bo´ladi. Korxonaning pul mablag´lari, qisqa muddatli qimmatli qog´ozlari va debitor qarzdorligi uning kreditor qarzdorlik va kechiktirilgan ssudalarini ham qoplashga yetmaydi.

Inqirozli moliyaviy holat korxonalarda o´z aylanma mablag´larini, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini va moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi yetishmovchiligini tavsiflaydi.

1) æ o´z aylanma mablag´lari Ò0;

2) æ zaxiralarni uzoqmuddatli moliyalashtirish manbalari Ò0;

3) æ zaxiralarni moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi Ò0.

**Korxonalarning moliyaviy barqarorlik monitoringi** deganda korxonaning moliyaviy barqarorligini ta´minlovchi ko´rsatkichlarni muntazam kuzatish, tahlil qilish va bashoratlash, taktik va strategik qarorlarni qabul qilish, shu bilan birga qabul qilingan qarorlarni samaradorligini baholashni tushunamiz. Moliyaviy barqarorlik monitoringining obyekti bo´lib korxonalarning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va moliyaviy ï xo´jalik faoliyatining samaradorligi hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik monitoringining ahamiyati quyidagilarda namoyon boʻladi, yaʼni iqtisodiyotning muhim bosqichlarida korxonalarning moliyaviy barqarorligi, uning raqobatbardoshliligini va amaliy hamkorlik salohiyatini asoslaydi. Moliyaviy barqarorlik monitoringi tizimining qoʻllanilishi korxona koʻrsatkichlarining oʻzgarish tendensiyasini kuzatish imkoniyatini yaratadi. Ichki moliyaviy barqarorlik monitoringining tashkil etilishi korxonaning ichki boshqaruvini tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi. U quyidagi afzalliklarga egadir:

- korxonalarning ichki moliyaviy monitoringini amalga oshirishning asosiy maqsadi faqat korxona rahbariyati uchun maʼlumot yetkazishdan iborat;
- monitoring oʻtkazishning obyekti korxonaning aniq boʻlimlari sanaladi.

Ichki moliyaviy barqarorlik monitoringining vazifasi korxonaning moliyaviy holati va uning rivojlanish istiqbollari toʻgʻrisida rahbariyatga tahliliy axborot yetkazishdan iboratdir.

Moliyaviy barqarorlik monitoringining quyidagi funksiyalarini ajratib koʻrsatish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

1) Korxona mulkiy holatining monitoringi, aktiv va passivlar tarkibi;

2) Korxona likvidliligi monitoringi. Likvidlilik monitoringida

- joriy likvidlilik,
- tezkor likvidlilik
- mutlaq likvidlilik koeffitsiyentlari,
- oʻz aylanma mablagʻlari va boshqa koʻrsatkichlar oʻrganiladi;

3) Korxona ixtiyorida boʻlgan mablagʻlar aylanuvchanligi va tadbirkorona faollik monitoringi. Bu yerda koeffitsiyentlar va aylanuvchanlik davri monitoringi amalga oshiriladi:

- debitor va kreditor qarzdorlik;
- ishlab chiqarish zaxiralari;
- oʻz va asosiy kapitali.

4) Korxona rentabelligi monitoringi. Bunda korxonaning mahsulot rentabelligi, aylanuvchanligi va oʻz kapitali koeffitsiyentlari aniqlanadi;

5) Moliyaviy boshqaruv dastagining monitoringini tashkil etish. Bu bo‘limda o‘z mablag‘lari rentabelligini oshirish uchun ma’lum foizlarda olingan kreditlardan samarali foydalanish monitoringi amalga oshiriladi;

6) Ishlab chiqarish dastagi samaradorligining monitoringi. Bu yerda ishlab chiqarish samaradorligining miqdori ko‘zda tutiladi. Korxonalarda moliyaviy barqarorlik monitoringi mexanizmini ishlab chiqish quyidagi maqsadlarga, ya’ni yo‘naltirilganlik, uzluksizlik, tizimlilik, variantlilik, monitoring o‘tkazish uslubiga moslashuvchanlik va tezkorlik printsiplariga asoslanadi.

Korxonalarning moliyaviy barqarorlik monitoringi buxgalteriya balansi asosida, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda va pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotlar asosida amalga oshiriladi. Ular quyidagi bo‘limlardan iboratdir:

1) Korxona mulkiy holatining monitoringi, aktiv va passivlar tarkibi;

2) Korxona likvidliligi monitoringi. Likvidlilik monitoringida joriy likvidlilik, tezkor likvidlilik va mutlaq likvidlilik koeffitsiyentlari, o‘z aylanma mablag‘lari va boshqa ko‘rsatkichlar o‘rganiladi;

3) Korxona ixtiyorida bo‘lgan mablag‘lar aylanuvchanligi va tadbirkorona faollik monitoringi. Bu yerda koeffitsiyentlar va aylanuvchanlik davri monitoringi amalga oshiriladi:

- debitor va kreditor qarzdorlik;
- ishlab chiqarish zaxiralari;
- o‘z va asosiy kapitali.

4) Korxona rentabelligi monitoringi. Bunda korxonaning mahsulot rentabelligi, aylanuvchanligi va o‘z kapitali koeffitsiyentlari aniqlanadi;

5) Moliyaviy boshqaruv dastagining monitoringini tashkil etish. Bu bo‘limda o‘z mablag‘lari rentabelligini oshirish uchun ma’lum foizlarda olingan kreditlardan samarali foydalanish monitoringi amalga oshiriladi;

6) Ishlab chiqarish dastagi samaradorligining monitoringi. Bu yerda ishlab chiqarish samaradorligining miqdori ko‘zda tutiladi.

Moliyaviy barqarorlik monitoringining amaldagi mexanizmi aniq va to'liq shakllangan asosiy ko'rsatkichlar yig'indisiga asoslangan bo'lib, korxona faoliyati va istiqbolini ifodalovchi, ayniqsa, boshqaruv sifatini oshiruvchi ma'lumotlar tizimidan iboratdir. Barcha korxonalarning moliyaviy va iqtisodiy barqarorligi umumiy siyosatning barqarorligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu omilning ahamiyati respublikamiz korxonalar faoliyatida juda muhimdir.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligida davlatning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi uslublari, xususiy mulkka bo'lgan munosabat, iste'molchilar va mulk egalarini himoyalash choralarini e'tiborga olmaslikning sira iloji yo'q. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda «moliyaviy sog'lomlashtirish» tushunchasi tor ma'noda kreditorlar oldida qarzdorlikni uzishday ko'rinadi. Bu tushuncha faqatgina mavjud qarzlarni to'lash emas, balki bir qator tadbirlar majmuasidan iboratdir. Bu tadbirlar korxonaning moliyaviy holatini yaxshilashni ta'minlashga, kapitallashuviga va to'lov qobiliyatini tiklashga yo'naltirilgandir. Bu jarayonlar o'z navbatida korxonalarning o'z qarzlarini to'lashiga va korxonaning me'yorida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Muayyan moliyaviy ko'mak vositasida to'lovga layoqatsiz korxonalarning to'lovga layoqatliligini ta'minlashning asosiy tadbirlari quyidagilardan iboratdir:

- korxonalar faoliyatida yangi va zamonaviy boshqaruv uslublarini qo'llashni amalga oshirish;
- marketing samaradorligini oshirish, ya'ni korxonalarning ishlab chiqargan sifatli mahsulotlarini nafaqat ichki bozorlarga, balki xalqaro bozorlarga ham olib chiqish va tanishtirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish;
- korxonalarning debitor va kreditor qarzdorligini qisqartirish;
- iste'mol fondi va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar hisobidan aylanma aktivlar tarkibida o'z mablag'lari ulushini oshirishni ta'minlash;

- inventarizatsiyaga asoslangan holda ehtiyojdan ortiqcha asbobuskunalarni, materiallarni, oxiriga yetkazilmagan ishlab chiqarishni va tayyor mahsulotlarni sotish va boshqalardir.

Korxona moliyaviy menejerlari moliyaviy barqarorlikni taôminlashda nafaqat boshqaruvning yangi texnikasini va uslublarini egallashlari, balki korxona strategiyasini ham tubdan oózgartirishlari talab etiladi. Bular uchun quyidagilarni taôminlash zarurdir:

- budjetdan ajratilgan mablagólar hisobiga davlatning tovar va xizmatlarni ishlab-chiqarishni rivojlantirish dasturida imkoniyatga qarab maksimal qatnashish;
- korxonalar tomonidan koórsatiladigan xizmatlarga respublika boóyicha buyurtmalarni izlashni tashkil etish;
- korxona imkoniyati etadigan va taklif qilingan xizmatlarga talabni tahlil qilish;
- korxonaning barcha xizmatlari boóyicha samarali reklamani tashkil etish;
- aktiv tijorat faoliyatini oótkazish.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirish tadbirlari orqali quyidagi ichki samaralarga ega boólish mumkin:

Yalpi daromad va sof daromaddan zaxira yaratish orqali - mulk narxida oóz mablagólari ulushini orttirish va oóz aylanma mablagólari manbasi miqdorini koópaytirish mumkin.

Debitor qarzdorlikni toólash uchun ishlab chiqarishni kuchaytirish orqali - pul mablagólari ulushini orttirish, aylanma mablagólar aylanuvchanligini tezlashtirish va oóz aylanma mablagólari bilan taôminlanganligini oóstirish.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishda - xarajatlar miqdorini pasaytirish va realizatsiya rentabelligini orttirish.

Debitor qarzdorlik aylanuvchanligini tezlashtirishda - debitorlardan mablagólarning doimiy kirimini va toólovga layoqatlilik koórsatkichlariga muvofiq yuqori «mustahkamlik zaxirasi» ni yaratish.

Yuqorida keltirilgan korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirishning qonuniy asoslari va tadbirlari bozor iqtisodiyotining oózgaruvchan vaziyatlarida oózining ijobiy natijalarini beradi

Ktsr□tsna mtsliyaviy-□o`jalik fatsliyatini iftsdaltsvchi ko`rsatkichlardan eng muhimi uning mtsliyaviy barqartsrligini iftsdaltsvchi ko`rsatkichlardir. Aktivlar (astsiy ftsndlar, ntsmtsddiy aktivlar, aylanma mablagólar) ga qo`yilgan mablagólarni o`z mablagólari histsbiga qtsplaydigan, ntso`rin dȩbittsrlik va krȩdittsrlik qarzlariga yo`l qo`ymaydigan hamda o`z majburiyatlariga o`z vaqtida to`laydigan ktsr□tsna mtsliyaviy barqartsr ktsr□tsna histsblanadi.

Ktsr□tsnaning mtsliyaviy barqartsrligini tahlil qilishda ularni tavsifltsvchi ko`rsatkichlarni histsblab chiqish, ularni bir yil yoki bir nȩcha yil uchun dinamikada qiyoslash, ularning yomtsnlashish yoki ya□shilashish sabablarini aniqlash, mtsliyaviy htslatni ya□shilashga tsid aniq tavsiyalar ishlab chiqish kȩrak bo`ladi.

Mtsliyaviy barqartsrlik ktseffitsiȩntlarining ahamiyati astsan krȩdittsrlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, zȩrts ushbu ktseffitsiȩntlar tsrqali ular ktsr□tsnaning chȩt el sarmtsyalariga qaramlik darajasini, mtsliyaviy htslatining barqartsrligini, bankrtst (sinish) ehtimtslini hamda invȩstitsiya siyosatini yurgizish variantlarini aniqlaydilar.

Mtsliyaviy-iqtistsdiy inqirtsz shartsitida, ktsr□tsnaning mtsliyaviy qaram bo`lib qtslishiga yo`l qo`ymaslik ltszim.

Ktsr□tsnani mtsliyaviy barqartsrligini tahlil qilish usulini quyidagi jadvalda havtsla qilinadi.

**2.3.2 -jadval**

**Mtsliyaviy barqartsrlik ko`rsatkichlarini histsb-kittsb usuli**

| Ko`rsatkichlar | Ntsrma | Aniqlash tartibi |
|---|---|---|
| 1. Qarzga tslingan va o`z mablagôlarining nisbati | <1 | 1-shakl.770 satr<br>1-shakl.480 satr |
| 2. Ktsr⁼tsna jami mulkida astssiy va mtsddiy aylanma mablagôlarning ulushi. | >0.5 | 1-shakl 130+140 satr<br>1-shakl. 400 satr |
| 3. Ktsr⁼tsna jami mulkida astssiy vtssitalarni ulushi | >0.3 | 1-shakl. 130 satr<br>1-shakl.400 satr |
| 4. O`z mablagôlari bilan taôminlanishi | >0.1 | 1-shakl.480-130<br>1-shakl.390 satr |
| 5.Ktsr⁼tsna to`ltsv qtsbiliyati | >2.0 | 1-sh.390-2a-sh.7 ustun yakuni<br>1-shakl. 600 satr |
| 6. Uztsq muddatli qo`yilmalar tarkibi | >0.1 | 1-shakl.570+580<br>1-shakl. 130 satr |
| 7. Jalb qilingan kapital tarkibi. | <0.1 | 1-shakl.570+580<br>1-shakl. 770satr |
| 8. O`z kapitalini uztsq muddatli majburiyatlarga nisbati | - | 1-shakl.480<br>1-shakl. 570+580 satr |
| 9. O`zining kapitalining astssiy kapitalga nisbati | - | 1-shakl.480 satr<br>1-shakl. 012+030 |
| 10. Jtsriy aktivlarning qarzga tslingan kapitalga nisbati | >1.0 | 1-shakl.390 satr<br>1-shakl. 770 satr |
| 11. Uztsq muddatli qarzlarni o`z kapitaliga nisbati | <1.0 | 1-shakl.570+580 satr<br>1-shakl. 480 satr |
| 12. Amtsrtizatsiyani jamgôarish ktseffitsij nti | >0.5 | 1-shakl.011+021 satr<br>1-shakl. 010+020 satr |

# XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarning moliyaviy holatiga toôgôri baho berishda, tovar moddiy zaxiralardan samarali foydalanishda moliyaviy menejment xizmatlari bugungi kun talabiga javob beradigan eng dolzarb xizmatlardan biri boôlib hisoblanadi. Chunki moliyaiviy menejmentning eng asosiy boshqaruv obyektlaridan biri korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruv hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda korxonalarda moliyaiviy menejment xizmatlarini tashkil etishga katta eôtibor qaratiladi. Shuningdek, moliyaviy menejment subyekti moliyaviy menejerlar zimmasida korxonaning eng masôuliyatli vazifalari yuklatiladi. Shuning uchun ularda eng koôp daromad oluvchilardan biri moliyaviy menejerlar boôlib hisoblanadi.

Umuman olganda ushbu bitiruv malakaviy ishi natijalaridan kelib chiqqan xolda quyidagi xulosalarni beramiz:

- Moliyaviy menejment korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruvni samarali tashkil etadi. Inqiroz holatlarini oldindan koôra oladi va uni bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlar ishlab chiqilib, korxona faoliyatiga tadbiq etadi. Bu esa oôz navbatida korxona moliyaviy barqarorligini saqlab qoladi.
- Moliyaviy menejment korxonalarda eng masôuliyatli xizmatlardan biri boôlib hisoblanadi. Maoliyaviy menejment korxonalar moliyasini samarali boshqarishni zimmasiga oladi. Moliyaviy menejment mamlakatimizda endi rivojlanayotgan soxalardan biri boôlib hisoblanadi va korxona xususiy kapitalini maksimallashtirish hamda Tovar moddiy zaxiralardan samarali foydalanish uchun barcha choralarni amalga oshiradi.
- Moliyaviy menejmentning eng asosiy boshqaruv obyektlaridan yana biri pul oqimlari boôlib, ularni samarali boshqarishda moliyaviy menejerlar barcha chora tadbirlarni amalga oshiradi. Pul oqimlarini boshqarishda pul oqimlari holati, korxonalarda pul mablaglari miqdori, pul mablaglarining yetarlilik yoki ortiqchalik holati, pul mablaglari aylanuvchanlik darajasi, shuningdek, valuta pul oqimlari oôrganiladi.
- Korxonalarda moliyaviy menejmentning asosiy boshqaruv obyektlaridan biri korxonaning investision faoliyati hisoblanadi. Korxonalarda investision faoliyat

bilan shugullanish asosan korxonalarda moliyaviy resurslarni diversifikasiya qilish davrida amalga oshiriladi. Agarda korxona oʻz ishlab chiqarish faoliyati bilan bir qatorda boshqa faoliyatlar bilan qisman shugullanishi korxonalaning moliyaviy holatida moliyaviy yuqotishlar xavfi kamayadi. Bundan tashqari korxonalar asosiy faoliyatida pul mablaglarini samarali boshqarish natijasida pul mablaglari aylanuvchanligini oshiradi. Bu esa oʻz navbatida pul mablaglarining maʼlum qismi boʻshashiga olib keladi. Ishlab chiqarishdan vaqtinchalik boʻshagan pul mablaglarini yanada samarali foydalanish maqsadida investisiyaga yoʻnaltirishi mumkin.

Yuqoridagi xulosalar asosida bitiruv malakaviy ishining quyidagi takliflari keltirildi:

1. Bugungi kunda mamlakatimizda moliyaviy menejment xizmatlari faqatgina yirik korxonalarda mavjud, kichik korxonalarda moliyaviy menejment xizmatlari yoʻlga qoʻyilmagan. Shuning uchun ushbu korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

2. Korxonalarda pul oqimlari xarakatini samarali tashkil etish zarur. Bu oʻz navbatida korxonalarda pul oqimlari xarakati tezlashadi va pul mablaglari oborotida boʻsh pul mablaglari yuzaga keladi. Bu esa korxonaning ishlab chiqarishini kengaytirishga yoki investision faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

3. Tovar moddiy zaxiralardan samarali foydalanish, daromad, daromadlilik, likvidlilik va xavfsizlik omillarini yaxshi oʻrganish korxonaning inqirozga uchrashini oldini oladi. Bu omillar korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda va daromadlarni maksimallashtirishda xizmat qiladi.

4. Korxona ixtiyorida mavjud, lekin foydalanilmayotgan asosiy vositalarni ijaraga berish yoki sotib yuborish fikrimizcha ijobiydir. Chunki foydalanilmayotgan asosiy vositalar amortizasiya hisoblanishi natijasida maxsulot tannarxini oshiradi xamda bundan yana mol-mulk soligi undiriladi. Bular esa oʻz navbatida korxonaning pul mablaglari bekorga sarflanishiga olib keladi. Bu esa salbiy xolatdir. Pul mablaglari rentabelligini oshirishga erishgandan soʻng korxona

ixtiyorida ortiqcha pul mablaglari qoladi. Bu mablaglarni ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangi texnika sotib olishga yoki boshqa moliyaviy faoliyatlarga safarbar etish maqsadga muvofiq keladi. Natijada korxonaning umumiy pul fondlari rentabelligi yanada oshib, korxona yakuniy foydasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oôzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent,«Oôzbekiston» 2009 y.

2. ñBozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yoônalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari tugrisidaògi Oôzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005 yil 14 iyun.

3. ñTadbirkorlik subôektlari tomonidan taqdim etilayotgan hisobot tizimini takomillashtirish va uning nokonuniy talab etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish tugrisidaògi Oôzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2005 yil 15 iyun.

4. Oôzbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiktisodiy koôrsatkichlarning prognozi va Davlat budjeti parametrlari toôgrisidaò Oôzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1675-sonli Qarori, 30 dekabr 2011 yil.

5. Oôzbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiktisodiy koôrsatkichlarning prognozi va Davlat budjeti parametrlari tugrisidaò Oôzbekiston Respublikasi Prezidentining PK-1449-sonli Qarori, 24 dekabr 2010 yil.

6. Karimov I.A. ñ2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga koôtaradigan yil boôladi ò. T - ñOôzbekistonò − 2012

7. Karimov I.A. ñBarcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksal− tirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” T.ñOôzbekistonò - 2011

8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: ñOôzbekistonò, 2010.

9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kirishdan iborat. T.: ñOôzbekistonò, 2010.

10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: ñOôzbekistonò, 2010.

11. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oôzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoôllari va choralari. - T.: Oôzbekiston, 2009.- 56. B

12. I.A.Karimov 2015 yilda mamlakatimizni ijtomoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016yilga moʼljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʼnalishlariga bagʼishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisdagi maʼruzasi. // Xalq soʼzi. 2016 yil 16 yanvar(13).

13. [illegible] A., [illegible]. - M.: [illegible], 2000.

14. [illegible] O., [illegible] A. [illegible]. - M.: «[illegible]», 2005. - 326 [illegible]

15. [illegible] -M.:[illegible]M, 2003-240

16. [illegible] M. [illegible] 2009. [illegible] 960

17. [illegible] », Mo[illegible]-2004

18. [illegible] .M. «[illegible]», [illegible], M. - Infra-M - 2000

19. Vaxobov A, Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. T.: ñIqtisod-moliyaò 2008. 354 b.

20. [illegible] A.[illegible] «[illegible]», M.-[illegible]-2007

21. [illegible] «[illegible]», M. - «[illegible]» 2008[illegible].46[illegible]

22. Jumaev N., Burxanov U. Moliyaning dolzarb muammolari/. Monografiya. T.: Yangi asr avlodi, 2003. - 382 b.

23. Jumaev N., Vaxabov A.V. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: mohiyati, sabab-oqibatlari va Oʼzbekistonga taʼsiri. - T.: JIDU. 2009. 56-bet.

24. Jumaev N.X., Abduraxmonov O.D. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari.

25. [illegible], Ko[illegible]. - M.: TK [illegible], 2008. - 272 [illegible]

26. Yoʼldoshev Z., Malikov T. ñUy xoʼjaligi moliyasiò Oʼquv qoʼllanma, T. ñIqtisod-moliyaò, 2008 y, - 105 b.

27. [illegible] .M., [illegible]M. A. [illegible]. - M.: OME[illegible]A - [illegible], 2008.- 27[illegible]

28. Malikov T.S., Gaydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. - T.: ñIqtisod-moliyaò, 2009. 456 bet.

29. Malikov T.S., Gaydarov N.X,. Budjet. Oĉquv qoĉllanma. . T.: ñIqtisod-moliyaò, 2008 yil.

30. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat budjeti. Oĉquv qoĉllanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: ñIqtisod-moliyaò, 2007 yil.

31. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Budjet daromadlari va xarajatlari. Oĉquv qoĉllanma. . T.: ñIqtisod-moliyaò, 2007 yil

32. ɫ tsʧtsɘʘʈ .ɹ . «ʌ ɖʤʘʤʄ tstɕɢʘʤɭʟʘɥɖɖ», - ɫ ɖʪʝ tɕ-2008

33. ɫ tsʜ tɕʝ ʜ. M.Ị .ʈ tsʤʒʘʤsɘfŋ tsɢts «ʌ ɖʤʘʤʄ » ɮɥʝ ʙʤɖʕ, - ʄ tsfŋɘʘ- «Ɩ tɕʘʔʪ- ʀ ʟʜʘʪ», 2007 36fŋ

34. ɫ tsʜ tɕʝ ʜ. ʐ tsʓɖʤ ʀ ., ʌ ɖʤʘʤʄtsɘʳ ʔ ʤʒ ʤʝ ʏ ʤʝ ʤʪ.-M.: ʀ ɼ ʌ ɪ ʃ -ɫ tɕʝ fŋ, 2004, - 408fŋ.

35. B.Toshmurodova, O.Hamdamov Moliyaviy menejment. T. ñIqtisod-moliyaò 2012y.

36. ɫ tsʤʷʕʘʈ .ɹ .ʌ ɖʤʘʤʄ . - M.: Ɩ ʤɖʪɖ-ɼ ɖʘʤʘ 2008. - 703 fŋ

37. ɫ tsʜ tɕʝ ʜ. ɹ .ɩ .ɹ ʝ ʤsɢʤʘʟtsɘtsʔ «ɼ ʝ ʤ ɢɖ,ʕtɕʝ ʜɖʪ, ʙʘʤɖ» ɮɥʝ ʙʤɖʕ, - ʄ tsfŋɘʘ- «Ɩ tɕʘɮʪ-ʀ ʟʜʘʪ», 2007 ɢ. 36fŋ

38. ʍtsʓʤsɘ ɩ . ʋ ʧ tɕʘɘʤʝ ʤɖʝ tɕɖfŋ tsʤʒ ʋ ɥʝ ʙ.ʧtsfŋʙɖʝ ʜʤʷ ɘɮʟtsɘ. M.: Ɩ ʤɖʪɖ-ɼ ʘʤʘ, 2001, 239fŋ

39. ʏ ʝ ʤɢ ʌ .ʃ ɖ ñʌ ɖʤʘʤʄ ʕtstɕʃtstɕʘɥɖɖ: ʪʝ tstɕɖʷ,ʤʝ ʪtsɘʳ ɖ ʧ tɕʘʕʪɖʕʘò, - ʄ tsfŋɘʘ ïʀ ʤʷ tɕʘM - 2000

40. ʐ ʝ ɘɥɮʕ ɼ . A. «ʂ tstɕʃtstɕʘʪɖɘʤ ʝ ʷɖʤʘʤʄ », ʄ tsfŋɘʘɹ tɕtsfŋʃ ʝ ʜɖʷ-2008

41. Haydarov N. Moliya. Oĉquv qoĉllanma. - T.: Akademiya. 2003 - 72 b.

Internet saytlari

42. http://www.re gnum.ru

43. http://www.uzreport.com

44. http://www.cfin.ru

45. http://www.risk.ru

46. http://www.fma.org

47. http://*www.finman.ru*
48. http://*www.alleng.ru*
49. http://www.aup.ru
50. http://www.cfin.ru

http://www.risk.ru